

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

BITIRUVCHI KURS TALABASI

AXMEDOVA FULERA MUSTAFO QIZIning

**«O`ZBEK VA TURK TILLARIDA EGALIK, KELISHIK
KATEGORIYALARI»**

mavzusidagi

*5 120 100 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2017-2018-o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

AHMEDOV A.R.

Buxoro – 2018

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani_____A.A.Haydarov

“__” _____2018-yil.

BITIRUVCHI KURS TALABASI
AXMEDOVA FULERA MUSTAFO QIZIning
«O`ZBEK VA TURK TILLARIDA EGALIK, KELISHIK
KATEGORIYALARI»

mavzusidagi

*5 120 100 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2017-2018-o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

AXMEDOV A. R.

Rasmiy hakam:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

QILICHEV B.E.

Buxoro – 2018

«Ma'qullayman» _____
Ilmiy rahbar: f.f.nomzodi,
dotsent A.R. Ahmedov
 « » _____ **2017-y.**

«Tasdiqlayman» _____
O`zbek tilshunosligi kafedrası
mudiri A.R. Ahmedov
 « » _____ **2017-y.**

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi **Axmedova Fulera Mustaf**o qizining
 «O`zbek va turk tillarida egalik, kelishik kategoriyalari» mavzusidagi bitiruv
 malakaviy ishi ustida olib borishi lozim bo`lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo`yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to`plash, o`rganish	sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o`rganish	sentabr		
	3. Mavzu bo`yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To`plangan materiallarni sistemalashtirish	oktabr		
BMI ustida ishlash	1. BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	noyabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash	dekabr		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash	yanvar		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko`chirish	fevral		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	mart		
	6. Adabiyotlar ro`yxatini tartibga solish	aprel		
BMI ni rasmiy-lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may		
	BMI ni himoya qilish	iyun		

Bitiruvchi kurs talabasi
Ilmiy rahbar

Axmedova Fulera
Ahmedov Atoullo

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek tilshunosligi kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan

KO`CHIRMA

25-avgust, 2017-y.

Qatnashdil: kafedraning barcha
a`zolari

K U N T A R T I B I

Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda ilmiy rahbarlarni tayinlash.

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Axmedova Fuleraning bitiruv malakaviy ishi mavzusi **“O`zbek va turk tillarida egalik, kelishik kategoriyalari”** shaklida tasdiqlansin.

Bitiruvchi kurs talabasi Axmedova Fuleraning malakaviy bitiruv ishiga f.f.nomzodi, dotsent Ahmedov Atouullo ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

A.R.Ahmedov

Yig`ilish kotibasi

N.G`aybullayeva

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek tilshunosligi kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi
bayonnomasidan

KO`CHIRMA

Buxoro sh.

10-may, 2018-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha
a`zolari

K U N T A R T I B I

4-kurs talabasi Axmedova Fuleraning **“O‘zbek va turk tillarida egalik, kelishik kategoriyalari”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi muhokamasi

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Axmedova Fuleraning **“O‘zbek va turk tillarida egalik, kelishik kategoriyalari”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishiga taqrizchi etib filologiya fanlari nomzodi, dotsent B.E.Qilichev tayinlansin.

Yig`ilish raisi

A.R.Ahmedov

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

**Filologiya fakulteti 5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)
ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi Axmedova Fuleraning “O`zbek va turk tillarida
egalik, kelishik kategoriyalari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi**

ANNOTATSIYASI

Ushbu ishda o`zbek va turk tillarida egalik, kelishik kategoriyalari haqida yaxlit ma`lumot berilgan. Ularning har ikki tildagi o`xshash va farqli tomonlari atroflicha sharhlangan. Bunda o`zbek tilidagi kelishik kategoriyasining turk tili kelishik kategoriyasi bilan o`zaro chog`ishtirib asosiy farq kelishik qo`shimchalarining variantlarida ya`ni xilma xilligida ekanligi sharhlangan. Bu rang baranglikning bosh sababi turk tilida singarmonizm qonuniyatining amal qilinishi ekanligi ta`kidlangan. Xuddi shu fikr, egalik kategoriyasiga ham tegishli ekanligi ishda o`z ifodasini topgan.

Bu ikki tilni qiyoslab o`rganishning eng muhim tomoni shundaki, turkiy tillarning o`ziga xosligi va umumiy tomonlari shu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan hamda tarjimashunoslik bilan shug`ullanayotgan tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Ilmiy rahbar

Ahmedov A.R.

Talaba

Axmedova F.

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi Axmedova Fuleraning “O`zbek va turk tillarida egalik, kelishik kategoriyalari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

XULOSASI

O`zbek tilshunosligi taraqqiyoti va undagi til hodisalari, avvalo, o`zbek tilining o`ziga xos tomonlari bilan belgilansa, ikkinchi tomondan turkiy tillar bilan o`zaro aloqasi va turkiy tillarning o`zbek tiliga ta`siri bilan belgilanadi. Jumladan, o`zbek adabiy tilidagi ayrim bir nutqiy hodisalar (yiroq – iroq – jiroq, borgan – boran, o`tkazmoq – o`tqazmoq va boshqalar) turkiy tillarga mansub bo`lgan ma`lum bir tilning me`yoriy shaklidir. Adabiy tilimiz uchun nome`yoriy bo`lgan nutqiy hodisalar yoki o`zbek shevalaridagi shakllari aslida ma`lum bir turkiy tilga xos bo`lgan shevaning til birligidir. Shu sababli adabiy tilimizdagi fonetik hodisalar (tovush tushishi, ortishi, almashishi) turkiy sheva yoki tilning me`yoriy birligi bo`lib hisoblanadi. Bu holatni to`g`ri baholash va sharhlash uchun hech bo`lmaganda ikki turkiy tilni o`zaro qiyoslab o`rganishimiz zarur bo`ladi. Bu esa o`z navbatida o`zbek tilshunosligidagi ayrim munozarali masalalarni hal etishda amaliy ahamiyatga egadir.

Bitiruvchi kurs talabasi Axmedova Fuleraning mazkur ishi bu borada qilinayotgan ishlarning biri bo`lib hisoblanadi. Shu ishning natijasi sifatida “O`zbek va turk tilining qiyosiy grammatikasi” nomli metodik qo`llanmaning yuzaga kelganini ta`kidlash o`rinlidir.

Bitiruvchi kurs talabasi F. Axmedovaning izlanishlari bitiruv malakaviy ishlari oldiga qo`yilgan talablarga javob beradi. Mazkur bitiruv malakaviy ishini ilmiy rahbar sifatida yakunlangan ish deb hisoblayman va uni rasmiy himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar

Ahmedov A.R.

o`zbek tilshunosligi kafedراسi dotsenti, f.f.n.

20-may, 2018-yil.

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lim yo`nalishi bitiruvchisi Axmedova Fuleraning "O`zbek va turk tillarida egalik, kelishik kategoriyalari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga DAK

XULOSASI

№	Belgilangan me'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo`yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo`lmasligi kerak)	talabga javob beradi-10 ball	talabga qisman javob beradi-7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud-4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo`yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan-8 ball	grant loyihasi bo`yicha - 7 ball	BuxDU dasturi bo`yicha-6 ball yoki dolzarb muammolar bo`yicha-5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yetarli darajada asoslangan-5b.	yetarli asoslanmagan-3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to`liq aniq emas - 5 ball	aniq emas - 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodla-ridan foydalanganlik darajasi	to`la- 7 ball	qisman - 5 ball	yetarli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi - 8 ball	ilgari olingan - 6 ball	to`la ishonchli emas-3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo`llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo`q- 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo`yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to`la aniq emas - 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball

9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referaktiv xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to`la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan - 6 ball	faqat darslik, ma`ruza matnlari, o`quv qo`llanma va ma`lumotnomalardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a`lo - 10 ball	yaxshi - 7 ball	qoniqarli - 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to`liq - 8 ball	o`rta - 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	BMIning tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a`lo - 7 ball	yaxshi - 6 ball	qoniqarli - 5 ball
14	BMIGA qo`yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir ball bo`yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: prof. Shermatov A.

A`zolari: 1. dots.Haydarov A.A. (rais muovini)

2. dots.Ahmedov A.R. (a`zo)

3. dots.Qilichev B.E. (a`zo)

4. dots.Hamroyeva Sh.M. (a`zo)

-iyun, 2018-y.

Reja:

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.

I bob. O‘zbek va turk tillari morfologiyasi.

I.1. Kategoriya haqida ma’lumot.

I.2. O‘zbek va turk tillarida singarmonizm hodisasi.

II bob. Egalik kategoriyasi.

II.1. O‘zbek tilida egalik kategoriyasining o‘rganilishi.

II.2. Turk tilida egalik tizimi.

III bob. Kelishik kategoriyasi.

III.1. O‘zbek tilida kelishik kategoriyasining o‘rganilishi.

III.2. Turk tilida kelishiklar tizimi.

Xulosa.

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikning murakkab, sharaflı yo‘lıdan dadil, og‘ishmay olg‘a boorish, uni mustahkamlash, rivojlantirish, ayniqsa, o‘zbek tilshunosligida mavjud dolzarb muammolarni atroflicha o‘rganish hozirgi tilshunosligimizning vazifasi hisoblanadi. Zero, elning tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tilimizni mustamlaka davrida erkin o‘rganishga hamma vaqt ham imkon bo‘lavermagan. Zotan, tilimizning davlat maqomiga ega bo‘lganligi, uning xalqaro munosabatlar doirasiga chiqa boshlaganligi Respublikamiz istiqloli bilan uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunga kelib, nafaqat tilimiz umuman olganda ta‘lim va ilm-fanga alohida e‘tibor berilmoqda. Buni yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari bilan isbotlaymiz: “...ta‘lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta‘limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi”.¹

Har qanday fan taraqqiyoti tadqiqot ishlarining ko‘lami va dolzarbligi bilan uzviy bog‘lanadi. Shu bois bu borada qo‘lga kiritilgan har bir ilmiy xulosa muhim ahamiyat kasb etadi. Til taraqqiyotini nainki so‘zdan, balki grammatik birliklardan ham ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi, tilshunoslik fanining rivojini til sistemasining asosiy belgilaridan biri bo‘lgan grammatik birliklarning ishtirokisiz tasavvur qila olmaymiz. Zero, grammatik birliklar birikma va gap konstruktsiyasida asosiy obyektlardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan har bir til birligining tub mohiyatini ochib berish va sharhlash zaruriyati mavjudki, uni hech bo‘lmaganda ikki til hodisasi yoki bir lisoniy birligining ikki til (qardosh, noqardosh bo‘lishidan qat‘iy nazar) doirasida o‘ganilishini taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida to‘g‘ri nazariy xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Ushbu malakaviy bitiruv ishimizning dolzarbligi ana shu bilan belgilanadi.

¹Мирзиёев Ш.М.Танкидий таҳлил, катъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017.- б. 44.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Tilshunosligimizda egalik va kelishik kategoriyasini o‘rganish Mahmud Koshg‘ariy ijodidan boshlab to bugungi kunga qadar ko‘plab tilshunoslarimizning izlanishlari bilan tadrijiy davom etib kelmoqda. Keyinchalik o‘zbek tilshunosligida esa o‘z maqsad va yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, H. Ne‘matov, S.Ashirboyev, A.Hojiyev, Sh.Shoabdurahmonov, Sh.Rahmatullayev, R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, R.Sayfullayeva, A.Shomaqsudov, I.Rasulov, B.Mengliyev, D.G‘aniyeva kabi tilshunoslar keng o‘rganganlar. Ammo turkiyshunoslik doirasida qiyosiy aspektda juda kam o‘rganilgan. Masalan, Y.Abdurasulovning “Turkiy tillarning qiyosiy–tarixiy grammatikasi” (Toshkent, “Fan”, 2009) va X.A.Dadaboyev, Z.T.Xolmanovanning “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi(Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni”, 2015) kabilar.

Xorij tilshunoslaridan N.A.Baskakov, A.N.Kononov, S.N.Ivanov, V.V.Radlov, I.A.Batmanov, V.I.Nasilov, S.Y.Malov kabilarning turkiy tillar doirasida egalik va kelishik kategoriyasini o‘rganishdagi xizmatlari beqiyosdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: o‘zbek va turk tillarida egalik va kelishik kategoriyasining o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o‘zbek va turk tillari morfologiyasi haqida umumiy ma’lumot berish;
- kelishik va egalik kategoriyasining o‘rganilish tarixi haqida so‘z yuritish;
- turkiy tillar doirasida kelishik va egalik kategoriyasini umumiy holda o‘rganish;
- o‘zbek va turk tillarida kelishik va egalik kategoriyasining o‘ziga xos tomonlarini aniqlash;
- kelishiklarning o‘zaro ma’nodoshligi haqida so‘z yuritish;
- kelishik va ko‘makchilarning o‘zaro vazifadoshlarini ko‘rsatish;
- ikkala tilda kelishik kategoriyasini o‘zaro qiyoslash va xulosalar chiqarish;
- o‘zbek va turk tillarida singarmonizm hodisasi haqida so‘z yuritish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Ishni yoritishda tilshunoslik nazariyasiga doir turli darslik va qo‘llanmalar obyekt sifatida olindi. Bundan tashqari Özkan Mustafa, Hatice Tören, Osman Esin. Üniversiteler için Türk dili. İstanbul, 2001, Dil ve anlatım (9,10,11,12 sınıflar için) elektron o‘quv qo‘llanmasi va o‘zbek tilida kelishik kategoriyasi tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlardan foydalanildi. Ikki tilni qiyoslash jarayonida o‘zbek adabiyoti vakillari va Jaloliddin Rumiy, Yunus Emre, Yavuz Bülent, Yahya Kemal kabi turk adabiyoti vakillari ijodiga murojaat qilindi. Bundan tashqari o‘zbek tilshunoslaridan Y. Abdurasulovning “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi tayanch manbaa sifatida olindi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirzoyoyevning asarlari, ma’ruzalari va jahon tilshunosligi faniga buyuk hissa qo‘shgan olimlarning nazariy fikrlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining metodi: qiyosiy, qiyosiy-tarixiy va tavsifiy metodlari.

Ishning jamoatchilik e’tiboridan o‘tishi. Bitiruv malakaviy ish mavzusi o‘zbek filologiyasi kafedrasida yig‘ilishida tasdiqlangan. Mavzuning o‘rganilishi yuzasidan yig‘ilishlarda axborot berilgan. Ish yuzasidan “O‘zbek va turk tillarining qiyosiy grammatikasi” nomli o‘quv qo‘llanma tavsiya e’tilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Tadqiqot ishning umumiy tavsifi, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Bitiruv ishining umumiy hajmi 67 sahifani tashkil qiladi.

KIRISH

Ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosni o'rganish, ular yaratgan olamshumul ilmiy kashfiyotlarni ro'y-rost bayon qilish imkoniyati faqat mustaqillik tufayligina vujudga keldi.

Ana shu imkoniyatdan foydalangan holda o'tmish madaniy merosimizni sinchiklab o'rganish, ajdodlarimizning dunyo tilshunosligiga qo'shgan xizmatlarini faxr-iftixor tuyg'usi bilan keng omma o'rtasida targ'ib va tashviq qilish har bir o'zbek ziyolisining eng shavqli-zavqli ishiga aylanmog'i lozim.

Rus imperiyasi davrida yoshlarni tarixdan uzib qo'yish, o'tmish madaniyati bilan oshno etmaslik, bu bilan ruslashtirish g'oyasini osongina amalga oshirish siyosati yurgizildi. Ana shu siyosat ta'sirida barcha fanlar tarixi singari o'zbek tili va tilshunosligi tarixi ham xaspo'shlab ko'rsatildi.

Aslida o'zbek tili va tilshunosligi o'zining uzoq tarixiga ega. Tilshunoslik sohasida qalam tebratgan allomalarimiz o'zlarigacha bo'lgan jahon olimlarining ilmiy merosidan bahramand bo'lishlari bilan birga, jahon tilshunosligining ravnaqi uchun ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosni o'rganish, ular yaratgan olamshumul ilmiy kashfiyotlarni ro'y-rost bayon qilish imkoniyati faqat mustaqillik tufayligina vujudga keldi.

O'zbek tili respublikamizning davlat tili deb qonunlashtirilishi xalqimizning tarixiy-madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Bu o'zbek xalqining hal qilinishi lozim bo'lgan muammolaridan biri edi. Chunki ushbu dolzarb muammoni hal qilmasdan turib, milliy siyosatni to'la amalga oshirish, milliy tillar haqidagi ta'limotning o'zbek tili taraqqiyotidagi rolini atroflicha, ilmiy asosda tushunish mumkin emas.

Til – kishilarga fikrlashuv, fikrlash quroli bo'lib xizmat qiladigan noyob ijtimoiy hodisa. Har bir til uning sohibi bo'lmish jamoaning bebaho mulki bo'lib, o'zi mansub jamoaning nomi bilan ataladi: o'zbek jamoasiga xizmat qiluvchi tilga

o‘zbek tili deyiladi. O‘zbeklar o‘z tilidan ko‘p asrlar davomida foydalanib keladi. Dastlab og‘zaki muloqotni ta‘minlagan o‘zbek tili keyinchalik yozma shaklda ham namoyon bo‘lgan. Yozma nutqda til hodisalaridan foydalanishning ma‘lum me‘yorlarini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘lgan. Til hodisalaridan ma‘lum me‘yor asosida foydalanish *adabiy o‘zbek tilining* shakllanishiga olib kelgan.

Ma‘lumki, barcha turkiy tillar bir manba – turkiy tillar oilasida birlashadi. Shu sababli qardosh bo‘lgan bu ikki tilning til birliklarini o‘zaro qiyosiy aspektda o‘rganish o‘ta dolzarbdir

Bilamizki, turklar qadimdan o‘g‘uz qavmlari tarkibida yashashgan, turkiy xalqlarning ilk VII- X asr yozma yodgorliklari – O‘rxun-Enasoy va qadimgi uyg‘ur yozuv bitiklarida turkiy qabilalar safida o‘g‘uzlarning nomi tilga olingan. U.Sanaqulovning yozishicha, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”ida turkiy qavmlarning yetmishga yaqin urug‘- qabilalari haqida ma‘lumotlar uchraydi. Unda o‘guz qabilasiga xos bo‘lgan yigirma uchdan oshiq urug‘lar nomma-nom qayd etilgan.

Turkiy tillar oilasi nazariyasiga ko‘ra, turkiy tillarni tasnif qilishda ba‘zi olimlar **geografik** o‘rinlashishni asos qilib oladilar. Bu haqda G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurovlarning “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” nomli asarida quyidagicha keltirilgan: V.V.Radlov turkiy tillarni to‘rt guruhga bo‘ladi:

Sharqiy guruh — bunga oltoy, chulim turklari, qaragas, xakas, sho‘r, tuva va yenisey turklari tillari kiradi;

G‘arbiy guruh — Sibir tatarlari, qirg‘iz, qozoq, boshqird, qoraqalpoq tillari;

3) O‘rta Osiyo guruhi — uyg‘ur, o‘zbek tillari;

4) Janubiy guruh — turkman, ozarbayjon, turk tillari, yoqut tili esa alohida guruhni tashkil etadi.

N.A.Baskakov va boshqa olimlar turkiy tillarni etnik tarkibiga ko‘ra tasnif qiladilar. Bu tasnifga ko‘ra, turkiy tillar sharqiy va g‘arbiy turkiy tillarga bo‘linadi.

Turkiy tillarning sharqiy guruhiga qadimgi uyg‘ur, tuva, tofalar (karagas),

yoqut, xakas, sho‘r, chulem, altay, qirg‘iz, oltoy tillari kiradi. O‘zbek tili tarixi bilan bevosita aloqador bo‘lgan g‘arbiy tarmoq turkiy tillar quyidagicha guruhlariga bo‘linadi:

O‘g‘uz guruhi (yoki janubiy va janubi-g‘arbiy guruh).

Bu guruhga turkman, gagauz, ozarbayjon, turk tillari kiradi. O‘g‘uz guruhiga kirgan tillarning asosiy xususiyatlari:

so‘z oxiridagi *g, g‘* tovushlari saqlanadi: *beg, dag‘*

so‘z boshidagi *t, k, q* tovushlari jaranglilashadi: *til — dil, kør - gör;*

bo‘l — o‘rnida *o‘l* — shakli ishlatiladi;

tushum kelishigi *-i*, qaratqich kelishigi *-in* shaklida qo‘llanadi, jo‘nalish kelishigining *-a, ya* shakllari bor;

f) singarmoniya, asosan, saqlanadi;

j) sifatdoshning *-asi, -mish, -an* shakllari qo‘llanadi va boshqalar.

Qipchoq guruhi yoki g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy guruhi.

Bu guruhga tatar, boshqird, qarayim, qumiq, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, altay, no‘g‘ay tillari kiradi. Qipchoq guruhiga mansub turkiy tillarning ba‘zi umumiy xususiyatlari:

t, k tovushlari so‘z boshida jaranglilashmaydi : *til, kel*

q tovushi *x* ga, ba‘zi o‘rinlarda *y* tovushi *j* ga o‘tadi;

unlilar 8-9 gacha boradi (*a — ä, i — i, u — ü, ø - o, e*);

ch > sh, sh > s: *qash* so‘zi *qach* o‘rnida, *qis* so‘zi *qish* o‘rnida (qozoq, qoraqalpoq tilida);

Qarluq guruhi yoki O‘rta Osiyo guruhi.

Bu guruhga o‘zbek va hozirgi uyg‘ur tillari kiradi. Qarluq guruhiga kiruvchi tillarning asosiy xususiyatlari:

tillar va shevalararo unlilar miqdori 6 tadan 9 tagacha o‘zgarib turadi;

p, t, k, q tovushlari ikki unli o‘rtasida jarangsizligini saqlay oladi;

so‘z oxirida *j, g‘, g* undoshlari saqlanadi yoki *q* undoshi *k* ga o‘tadi;

q va *k* fonemalari farqlanadi;

-g'an qo'shimchali sifatdosh juda keng qo'llanadi;

j) qaratqich kelishigining qo'shimchasi to'liq *-niy* shaklida qo'llanadi.

Bulg'or guruhi.²

Bu guruhga chuvash tili va o'lik bulg'or tillari kiradi. Barcha turkiy tillardan o'zining fonetik-morfologik xususiyatlari bilan keskin farqlanadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda o'zbek va turk tillaridagi kelishik va egalik kategoriyasini o'zaro qiyosiy metod asosida o'rganar ekanmiz, o'zi tillarni qachondan boshlab qiyosiy o'rganish boshlandi degan savol yuzaga keladi. Jahon tillarini qiyosiy o'rganish XVIII asrning birinchi yarmidan boshlandi. Yer yuzidagi qarindosh tillarni fonetik, leksik-grammatik jihatdan qiyoslash, bir tomondan, har bir til oilasi uchun asos bo'lgan bobo tilni aniqlashga urinishni maydonga keltirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilshunoslik fanining ham fan sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi.

XVIII asrning II yarmida Hindistondagi Kalkutta madaniyat institutining professori, ingliz tilshunosi Uilyam Yonz qadimgi hind yozma yodgorligi bo'lgan sanskrit ("*sancrta*" ishlangan, takomillashgan) tili va yozuvini yangi hind tili bo'lgan prakrit ("*prakrta*" - oddiy, sodda) tili va yozuviga qiyoslash, qadimgi sanskrit yozuvini yangi hind yozuvi prakrit asosida transliteratsiya qilish (qayta ko'chirish) natijasida qadimgi sanskrit tilining grek, lotin va hatto, fors tillari bilan ham faqat o'zak so'zlar jihatidan emas, grammatik shakllariga ko'ra ham bir o'zakdan tarqalgan tillar ekanligiga asos soldi. XIX asr birinchi yarmida esa Uilyam Yonz tomonidan maydonga tashlangan bu fikr butun Ovrupa olimlarining diqqatini tortib, butun asr davomida o'sha davr mashhur tilshunoslari Frans Bopp, Rasmusk Kristian Rask, Yakob Grimm, A.X.Vostokov va Vilgelm fon Gumboldt tomonidan hind-ovrupa tillari oilasi tarkibidagi tillarning

² Абдурахмонов Ф. А., Шукуров Ш. Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1973.– 10. 6

ma'lum tizim asosida o'rganilishi qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka jahon tillarini qiyosiy o'rganishning bosh yo'nalishi sifatida asos soldi.

Turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy o'rganish nisbatan ancha keyin XIX asrning oxiri, asosan, XX asrning birinchi yarmida hind-ovrupa, fin-ugor va boshqa til oilalari qiyosiy grammatikalari manbaida vujudga keldi. Shunga ko'ra ham, turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy o'rganish, ularning mukammal ilmiy-qiyosiy grammatikalarini yaratish hozirgi turkiy tillar tilshunosligi oldidagi hali to'la hal qilinmagan, hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim muammolardan biridir. Bu muammolarni qiyosiy-tarixiy tilshunoslik oldiga qo'yilgan asosiy tamoyillar asosida hal qilish hozirgi turkiy tillar qiyosiy grammatikasining maqsad va vazifalari, mazmun va mundarijasini ham belgilab beradi.

Tillarni qiyosiy o'rganish garchi, XVIII-XIX asrlarda G'arb mamlakati tilshunoslari tomonidan asoslangan deyilsa-da, aslida bu Sharqda o'rta asrlarda boshlangan bo'lib, turkiy tillarni qiyosiy o'rganishning asoschisi XI asr mutafakkir tilshunosi Mahmud ibn Husayn Muhammad Koshg'ariydir. U Koshg'arda tug'ilgan, Koshg'ar, Samarqand, Buxoro, Marv, Nishopur, so'ngra Bag'dodda ta'lim olgan, mashhur arab tilshunoslari Xalil ibn Ahmad va Sibovayhiyning tilshunoslikka doir asarlari bilan tanish bo'lgan.

Mahmud Koshg'ariydan bizgacha "Devonu lug'otit turk" (Turkiy so'zlar to'plami) asari yetib kelgan bo'lib, u bu asarida o'zi yashagan davr turkiy urug', qabila va elatlarning tarixi, etnografiyasi, xalq og'zaki ijodi, xususan, til xususiyatlari haqida ulkan meros qoldirgan.

"Devonu lug'otit turk" ikki qism - muqaddima va lug'at qismlaridan iborat bo'lib, uning muqaddima qismida muallif o'sha davrda Shimoliy Xitoydan tortib butun Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxorogacha yoyilgan katta hududlarda yashovchi urug'lar, qabilalar, elatlar va ularning tillari haqida, qabila va qabilalar uyushmalari tillarining fonetik va morfologik xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Oʻrta asrlarda oʻzining 50 dan ortiq asarlari bilan nom qoldirgan zabardast tilshunos olim Maxmud Zamaxshariydir.

Tilshunoslik sohasidagi Zamaxshariy ilmiy merosining koʻpchiligi arab tili tahliliga bagʻishlangan boʻlsa ham, uning “Muqaddimat ul-adab” asari oʻsha davr turkiy qabila va elat tillari haqida ham maʼlumotlarga boy asar boʻlgan. Asarda arabcha soʻzlarning forscha, turkcha, moʻgʻulcha va, hatto, xorazm tili asosida ham izohlanishi oʻtmish turkiy tillar qiyosini oʻrganish uchun ham qimmatlidir.

Oʻrta asrlarda turkiy tillarning qiyosi haqida asli Afrikadagi Berber qabilasiga mansub boʻlgan, Ispaniyada tugʻilgan, Bagʻdodda taʼlim olgan va ijod qilgan arab tilshunosi Asiritdin Abu Xayyon al-Andalusiyning “Kitob al-idrok lison ul- atrok” (Turklar tilini tushunish kitobi), arab sayyohi Jamolitdin ibn Muxannaning “Hayvat ul-lison xalibat ul-bayon”, Jamolitdin at- Turkiyning “Bi lugʻat al-mushtoq” va muallifi nomaʼlum boʻlgan “Kitob at-tuhfatuz zakiyati fil lugʻatit turkiya” (Turkiy tillar zakovatleri haqida tuhfa) nomli asarlarida qorliq, oʻgʻiz va qipchoq guruh turkiy tillarning leksikasi, fonetik-grammatik xususiyatlari haqida boy material berilgan.

Mashhur tarixchi va etnograf olim G.F.Myuller Sibir ekspeditsiyasida ishtirok etib, Sibir tarixi va butun Sibir oʻlkasida yashaydigan elatlarning til xususiyatlari haqida boy material toʻplaydi.

XIX asrda turkiy tillarni qiyosiy oʻrganuvchi gʻarb va rus turkiyshunos tilshunoslarining peshqadami Vasiliy Vasilevich Radlov oʻzining hozirgacha butun turkiy tilshunoslikda mashhur boʻlgan lugʻati “Опыт slovarya tyurkskix narechiy” (Turkiy lahjalar lugʻati tajribasidan) asarining soʻzboshisida turkiy til va lahjalarni oʻrganishga 1859- yildan boshlab kirishganligini yozadi. V.V.Radlov shundan keyingi qariyb yarim asr mobaynida turkiy elat va xalqlarning xalq ogʻzaki ijodini tadqiq qilish bilan birga ularning til va lahjalari leksikasi boʻyicha ham behad koʻp material toʻplab, 1888- 1911 yillarda Sankt-Peterburg matbaasida oʻzining toʻrt jild sakkiz qismdan iborat boʻlgan yuqorida qayd qilingan qiyosiy «Lugʻat»ini nashr

qildiradi. Nashriyot bu “Lug‘at”ni “turkiy tillar leksikasi ko‘lami va ilmiyligi” jihatidan V.V.Radlovning eng buyuk muvaffaqiyati deb baholaydi. Darhaqiqat, “Lug‘at” o‘z qiymatini hozirga qadar ham yo‘qotgan emas.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, bir bobo tildan tarqalgan turkiy tillarning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda aytish mumkinki, bir oilaning farzandi bo‘lgan ikki tilni solishtirishning ahamiyati nimada? Buning ahamiyati shundaki, har bir tilning boshqa tillarga o‘xshash umumiy tomoni bo‘lishi bilan birga uning o‘ziga xos xususiy tomoni ham bo‘ladi. Ana shu o‘ziga xoslik har bir tilni , jumladan , o‘zbek va turk tilining bahstlab, munozarali jihatlari o‘z yechimini topishga asos bo‘ladi.

I bob. O‘zbek va turk tillari morfologiyasi.

O‘zbek va turk tillari morfologiyasi haqida so‘z yuritishdan oldin, har ikki tilga xos bo‘lgan turkiy tillar morfologiyasi to‘g‘risida gapirib o‘tsak. Turkiy tillardagi qadimiy morfologik shakllar tahlil qilinganda oltoy nazariyasidagi fikrlar, ma‘lum ma‘noda, asoslangandek bo‘ladi.

Turkiy tillar faqat genetik jihatdan qarindosh tillar bo‘lib qolmasdan, ayni paytda tipologik jihatdan ham bir xil: tillarning morfologik jihatdan tasnifi bo‘yicha agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. So‘z o‘zagi va so‘z shakllaridagi mushtaraklik grammatika tizimida ham aks etadi.

Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili agglyutinativ hisoblanadi. Agglyutinatsiya <<ketma-ketlik>> ma‘nosidagi so‘z bo‘lib, qo‘shimchalarning o‘zakka ma‘lum tartibda va ketma-ket qo‘shilishini ifoda etadi. Bunday hollarda o‘zak va qo‘shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglyutinativ tillarda so‘z shakllari o‘zgarmas holda qo‘shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bunday tillarda affikslar, asosan, bir grammatik ma‘noni ifodalaydi. Masalan, -lar faqat ko‘plik qo‘shimchasi sifatida qaraladi.

Turkiy tillarda affikslar monofunksional xarakterga ega. Masalan, -sar – shart mayli shakli; -moq – noaniq shakl. Ammo ayrim affikslar bir necha vazifa uchun xoslangan. Bu holatni tilning grammatik tizimidagi taraqqiyot bilan izohlash mumkin. Masalan, -lar qo‘shimchasi grammatik ko‘plikni ifodalash bilan bir qatorda (bolalar, qushlar), uslubiy ma‘noni ham bildiradi (kulgular, qayg‘ular). Mazkur qo‘shimchaning hurmat, kesatq, kinoyani bildiruvchi grammatik ma‘nolari uslubiy jihatlari hisoblanadi. Buyruq mayli shakli da‘vat bilan birga son va shaxs ma‘nolarini ham ifodalaydi.

Turkiy tillar (o‘zbek tili)da o‘zakka, dastavval, so‘z yasovchi qo‘shimcha (morfema)lar, keyin lug‘aviy shakl yasovchi va oxirida sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar birikadi: tila-k-lar-imiz-ni.

Turkiy tillardagi affiksial morfemalar o‘zak morfemadan keyin qo‘shilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qo‘shimchalar turkiy tillar tabiatiga xos emas. Ser-(sersuv), no-(nomard), be-(begunoh), ba-(badavlat)... kabi old qo‘shimchalar fors-tojik tiliga xos bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy omillar ta‘sirida turkiy tillarga o‘zlashib ketgan. Old qo‘shimchalar ruscha-baynalmilal so‘zlarda ham mavjud. Agglyutinativ tillarga mansub turkiy tillarning morfologik xususiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi: So‘z doimo o‘zakdan boshlanadi. O‘zak, asosan, o‘zgarmasdir. Aksariyat hollarda o‘zakdan keyin qo‘shilgan har qanday affiks o‘zakni fonetik jihatdan o‘zgartirmaydi. So‘z shakllari, asosan, affikslar vositasida hosil qilinadi. So‘z shakllari hosil qilishda supplitiv shakllar ishtirok etmaydi, ya‘ni bir so‘zning turli shakllari faqat bir o‘zakdan hosil qilinadi.

O‘zak va affiks orasidagi chegara, aksariyat hollarda, aniq va ravshan bo‘ladi. Masalan, o‘ylandi so‘z shaklida o‘y – o‘zak, -la- fe‘l yasovchi affiks, --n – lug‘aviy shakl yasovchi va –di –zamon ko‘rsatkichi.

Har bir qo‘shimcha alohida grammatik ma‘noni ifoda etgani bois har bir so‘z shaklida bir necha qo‘shimchalarning ketma-ket kelishi kuzatiladi.

Turkiy tillarda so‘zlar tuzilishiga ko‘ra mustaqil ma‘noli va yordamchi morfemalardan tashkil topadi. Mustaqil ma‘noli morfemalar o‘zak (negiz) qismdan iborat bo‘lib, bunday o‘zak morfema turkiy tillarda sinxron jihatdan yaxlit bo‘ladi, yangi so‘z va shakllarning hosil bo‘lishi uchun asos sanaladi. Otlardagi kelishik, egalik yoki makon ma‘nosini anglatuvchi shakllar yordamida morfemalar hisoblanadi. Turkiy tillarda affiksial morfemalar qo‘shimcha grammatik ma‘noni shakllantirishga xizmat qiladi.

Turkiy tillarda so‘zlarning asos qismida o‘zak va qo‘shimchalar chegarasi farqlanib turadi. Bu fikr asoslidir, chunki, birinchidan, turkiy tillarda o‘zak o‘zgarmas bo‘lgani uchun keyingi taraqqiyot davomidagi o‘zgarishlar, asosan, nutq jarayonida o‘zakdan keyin qo‘shilgan vositalarda sodir bo‘ladi. Ikkinchidan, turkiy tillarda yangi ma‘no doimo tovush qo‘shish orqali hosil qilinadi, ya‘ni

tovush tushishi kam kuzatiladi. Yangi soʻz ham agglyutinatsiya qoidasiga koʻra oʻzakka soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshish orqali hosil qilinadi.

Agglyutinatsiya turkiy tillarning asosiy tipologik xususiyatidir. U orqali quyidagi xususiyatlar belgilanadi:

- morfemalarning aniq chegarasi;
- morfemalarning fonologik jihatdan oʻzgarmasligi;
- morfemalarning aksariyat hollarda bir maʼnoliligi;
- morfemalarning nisbatan mustaqilligi.

Qadimgi turkiy til umumturkiy morfologik xususiyatlarni namoyon qiladi. Qadimgi turkiy tilda soʻzlar ham, morfemalar ham, qattiq va yumshoq turlarga boʻlinadi. Qadimgi turkiy tilda birlamchi choʻziq unlilar ham farqlangan, undoshlarda jarangli va jarangsiz uygʻunlik bor.

Oʻzbek tilining morfologik sathida soʻzlarning umumiy maʼnosi boʻlgan soʻz turkumlari (masalan, otlarda umumiy predmetlik, feʼllardagi jarayonlilik), shuningdek, har bir soʻzshaklning maʼlum bir morfologik kategoriya doirasida qarama-qarshi qoʻyiluvchi maʼnosi (masalan, zamon, shaxs-son, egalik, kelishik) sifatida yuzaga chiqadi.

Oʻzbek tili morfologiyasida quyidagilar oʻrganiladi:

soʻz tarkibi;

toʻplam va tasnif;

soʻzlarning grammatik maʼnolari va ularni ifodalovchi grammatik shakllari ;

soʻz turkumlari(mustaqil,yordamchi,alohida olingan soʻzlar);

egalik;

kelishik va boshqalar.

Turk tili morfologiyasida ham boshqa turkiy tillardagi kabi soʻz turkumlari, egalik, kelishik, soʻzlarning grammatik maʼnolari va boshqalar oʻrganiladi. Ularning grammatikasida quyidagi oʻzgarishlarni qiyoslagan holatda kuzatishimiz mumkin:

türk tilida soʻzlar 3 ta alohida katta guruhga va oʻz ichida 8 ta turga ajraladi. Ular quyidagilar:

1. İsim Soylu Sözcükler(isim vazifasidagi soʻzlar): İsim, sıfat, zamir, zarf

2. Edat Soylu Sözcükler(koʻmakchi vazifasidagi soʻzlar): Edat, bağlaç, ünlem

3. Fiiller

8 ta turga quyidagilar kiradi: isim, sıfat, zamir, zarf, edat, bağlaç, ünlem, fiiller.

Oʻzbek tilida Soʻz turkumlari	Türk tilida Söz grubu
Feʼl	Fiil
Ot	İsim
Sifat	Sıfat
Olmosh	Zamir
Ravish	Zarf
Koʻmakchi	Edat
Bogʻlovchi	Bagʻlaç
Alohida olingan soʻzlar	Ünlem

Türk dil morfolojisinde fiil,sıfat,ısim,bağlaç,zamir,iyelik eki,hal eki ve diyer konular öğrenilir. Bu konulara anaokulunda temel taşı atilir ve öğrencilere yaşlarına göre bilgi verilir. Ortaöğretimde ise daha ağırlikli öğretilir veya metinlerle bilgilendirilir. Xuddi oʻzbek tilida boʻlgani kabi, türk tilida ham feʼl quyidagicha tasniflanadi:

Fiilimsi

İsim-fiiller	Sifat-fiiller	Zarf-fiiller
-ma,-is,-mak	-acak,-an,-ar,-asi,-dik	-up,-inca,-arak,-ken, -madan,-dikca,-r...
uyu-mak	uyu-y-an	uyu-y-up

Türk dilinde otlar aşağıdaki gibi sınıflandırılır:

1. Varlıklara Verilişlerine Göre (mevcut şeye göre isimlere göre):

A. **Cins İsmi** (türdeş isim): ağaç, top, kitap vs.

B. **Özel İsim** (kişisel isim):

Joy isimleri (Samsun, Uludağ)

Şahıs isimleri (Ahmet, Mustafa...)

Devlet isimleri (Pakistan, Şili)

Kitap, gazete, dergi isimleri (Yabancı, Tanın...)

Kurum isimleri (Marmara Üniversitesi, Kızılay)

Dil isimleri (Türkçe, İngilizce...)

Din ve mezhep isimleri (İslam, Ortodoks...)

Hayvan isimleri (Boncuk, Tekir...)

2. Karşılaştığı Varlığın Sayısına Göre (miktarına göre):

A. Tekil isim (tekil şahıslık): kalem, silgi...

B. Çoğul isim (çoğul şahıslık): evler, kitaplar...

C. Topluluk ismi (topluluk şahıslık): toplum, halk, millet...

Türkiye'de Prof.Dr.Hayati Develi Türk morfolojisi üzerine bir kaç çalışmalar yapmıştır. Onun yaptığı çalışmalarla Türk öğrencileri daha çok bilgilendiriliyor. Çalıştığı konular öğrencilerin morfoloji hakkındaki bilgilerini de artırıyor. "Türk morfolojisi", 2000.

"Eski Türkiye Türkçesi Ağzlarının Sınıflandırılmasında Morfolojik Esaslar", 2002.

"Türkiye lehçelerinde morfoloji", 2003.

"Türk ve Azerbaycan morfolojisi", 2006.

"Morfolojide öğrenilen konuların özellikleri", 2008.

Morfoloji hakkındaki bilgilerimizi toplamak gerekirse, yukarıda ismi geçen Prof.Dr.Hayati Develi yazdığı kitaplarında Türk dilini öğrenirken morfolojinin ne kadar önemli bir ünite olduğunu vurgular. Morfoloji Türkçenin temel taşı sayılır

ve orda o'rganilen (kelime gurplari, fiil, isim, sifat, zamir, baglac, edat, hal eki, iyelik eki vb) bilgiler turkceyi kusursuz o'rganmemize yordamci olur.

Turk morfologisini daha iy o'rganerek, farkli dillerle kiyaslayarak onun ozelliklerini anlatmak ve anlamamiz lazim.Uluslararası Bilimsel Toplantilarda bu dilin ozellikleri hakkında daha cok bilgiler vermemiz lazim.

I.1. Kategoriya haqida ma'lumot.

“Kategoriya” atamasiga biz ko'plab ilmiy adabiyotlardan, lug'atlardan va chet el adabiyotlaridan izoh topishimiz mumkin. “Kategoriya” atamasi tilshunoslikda juda faol ishlatilsa-da, uni oxirigacha to'la-to'kis ta'riflab berilgan, deb bo'lmaydi. To'g'rirog'i, berilgan ta'riflar hodisa mohiyatini ochib bera olmaydi. Masalan,“Kategoriya” atamasiga o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izoh berilgan: **Kategoriya** [yun, *kategoria*- ayblash, ta'na qilish] **1 fls.** Moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning eng muhim xususiyatlari va aloqalarini ifodalovchi umumiy tushuncha. *Zamon kategoriyasi. Sababiyat kategoriyasi.*

2.Muayyan belgilarining umumiyliigi bilan birlashgan narsa, hodisa, shaxslar turi, turkumi, guruhi; daraja. *Ammo eksperimental sinflarda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar kategoriyasi ham bor. Gazetadan. Ularga [terimchilarga] bajargan ishi uchun turli kategoriyalar bilan ustama haq to'lanadi. Gazetadan.*

3.Ilmiy terminologiyada: predmet turlarini yoki ularning umumiy belgilarini bildiruvchi tushuncha. *Grammatik kategoriyalar. Ot kategoriyasi. Egalik kategoriyasi.*³

O'z davrida grammatik kategoriya tushunchasi bilan bog'liq chalkashliklar haqida B.S.Xaymovichning “О грамматической категории” nomli asarida kinoya bilan shunday yozgan edi: “Grammatik kategoriyalar bilan biz maktab o'rindiqlaridan tanishmiz. Biz ular haqida “grammatik” nimaligini va “kategoriya” nimaligini istisno qilganda, hamma narsani bilamiz. Bugungi tilshunoslikda kategoriya atamasi bilan belgilanib kelayotgan birliklar

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, – Т., Ўзбек миллий энциклопедияси, 2005. 332-б.

geterogen tabiatli bo'lib, isbot uchun ularning ayrimlarini sanab o'tamiz: so'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari, nisbat kategoriyasi, ega kategoriyasi, aniqlik-noaniqlik kategoriyasi, shaxs kategoriyasi, qaratqich kelishigi kategoriyasi va hokazo.

Bunday chalkashlikning birinchi sababi kategoriya tushunchasi mazmuni va chegarasining noaniqligidir. Keyingi davr tilshunosligida faol qo'llana boshlagan maydon, leksik-semantik guruh, paradigmalardan kategoriyaning farqlanishi ham ancha chigal masala. Ana shu va shunga o'xshash boshqa muammolar yechimini topish uchun, avval, kategoriya borasidagi fikrlarimizni tiniqlashtirib olsak.

Ma'lumki, kategoriya atamasi tilshunoslik va boshqa fanlarga falsafadan o'tgan. Qadimgi faylasuflar insonning bilish faoliyati natijasi bo'lgan borliq hamda o'zlikni anglab yetishdagi asosiy tushunchalarni kategoriya deb aytganlar. Bular mohiyat, hodisa, sifat, miqdor, zamon, makon, sabab, oqibat kabilardir. Kategoriya falsafada eng qadimgi tushunchalardan bo'lsa-da, faylasuflarning unga qarashlari bir xil deb bo'lmaydi.⁴

Ko'rinadiki, kategoriya nomi ostida birlashgan tushunchalarning hammasi uchun umumiy jihat ham bor. Bu qismlarga bo'linish, ushbu qismlar orasidagi bog'liqlik va umumiy belgiga egalikdir. Ammo kategoriyalarning mavhum tabiati ularni belgilashda muayyan qiyinchilikka olib keladi. Xususan, falsafiy kategoriyalar borasida o'ziga xos ta'limot yarata olgan nemis faylasufi Gegelning bu boradagi fikrlari diqqatga sazovor. Uning fikricha, Kantning kategoriyalarni subyektiv deb baholashida jon bor. Masalan, muayyan predmetning belgilari shu predmetda birlashishi aniq. Biz bu belgilarni his qilamiz: bir chaqmoq qand qattiq, oq, shirinligi aniq. Ana shu belgilar predmetda birlashadi. Ammo ana shu birgalikni kuzatib bo'lmaydi. Shu bilan birga, kategoriyalarni faqat insonning fikrlash tarzi bilan bog'lab qo'yish to'g'ri emas.⁵ Gegel falsafasining mag'zi

⁴ Категории// Философский энциклопедический словарь. М., 1983. С.251.

⁵ Гегель.Энциклопедия философских наук. Т.И. Наука логики. М., 1974.С.74.

bo‘lgan “narsa o‘zida” faqat inson belgilagan jihatlargagina ega bo‘lishi mumkinmi?

Kategoriya atamasi tilshunoslikka falsafadan kirgan termin. U falsafada «obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko‘proq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha» tarzida ta’riflanadi. Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya’ni kategoriya uchun juftlik va alohidalik xos bo‘lishi shart. Falsafada juftlikni sabab-natija, mohiyat-hodisa, butun qism, alohidalikni borliq, miqdor, makon tashkil etsa, tilshunoslikda *kategoriya* atamasi ostida zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki ko‘plik (kelishik kategoriyasi) tushuniladi.

Bugungi tilshunosligimizda *grammatik kategoriya* atamasi ostida, asosan, morfologik kategoriyani tan olish ustuvor. Umuman, sintaktik kategoriya ham grammatik kategoriya sifatida qaralsa-da, xususiyl hollarda, ya’ni sintaktik tekshirishlarda *kategoriya* tushunchasi e’tiborga molik ahamiyat kasb etmaydi. Bunga qo‘shilib bo‘lmaydi, albatta. **Bir umumiy grammatik ma’no ostida birlashuvchi, shu asosda bir-birini taqozo etuvchi va bu umumiy ma’noning parchalanishi asosida inkor qiluvchi shakllar tizimi grammatik kategoriya** deyiladi.

Substansial tilshunoslikda grammatik kategoriyalarni Shohida Shahobiddinova chuqur va atroflicha o‘rgangan. Olimaning ishida o‘zbek tilida 9 ta kategoriya mavjudligi sanab o‘tilgan va ular quyidagicha ko‘rsatilgan:

nisbat kategoriyasi;

o‘zgalovchi kategoriyasi;

harakat tarzi kategoriyasi;

bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasi;

son kategoriyasi;

daraja kategoriyasi;

kelishik kategoriyasi;

egallik kategoriyasi;

kesimlik kategoriyasi:

9.1) shaxs-son;

9.2) zamon;

9.3) tasdiq-inkor;

9.4) mayl (modallik).

Sh.Shahobiddinovaning “Kategoriya va kategoriyalashtirishga bog‘liq ayrim muammolar haqida”⁶ nomli maqolasida: “Tilshunoslikning boshqa sohalari, masalan, fonetika, sintaksis hamda leksikologiyada ham kategoriyalar haqida so‘z borsa-da (ega kategoriyasi, unlilar kategoriyasi kabi), ular u qadar ko‘p ommalashmadi. Ularning kategorial xususiyatlari to‘liq ochib berilmaganligini bunga sabab qilib ko‘rsatish mumkin. To‘g‘ri, “so‘zlarning leksik-grammatik kategoriyalari” atamasi ancha keng tarqalgan. Biroq yana ham ko‘proq tarqalgan “So‘z turkumlari” atamasi ostida birlashtiriluvchi tushunchadan faqat atama jihatigina farqlidir. “So‘z” tushunchasi, uning qanday kategorial belgilarga egaligi va ular birlashuvchi kategoriyalarning o‘zaro munosabatlari masalasi xususiy tilshunosligimizda zamonaviy fan talablari darajasida ochib berilgan, deb bo‘lmaydi”kabi qarashlari mavjud.

Bundan tashqari yana o‘zbek tilshunosligida kategoriya va u bilan bog‘liq turli muammolarni yechishga doir bir qancha ilmiy ishlar qilingan. Masalan, Sh.Sodiqova “Hurmat kategoriyasining semantik-funksional xususiyatlari”, B.Mengliyev “Grammatik kategoriyalarni belgilashga doir mulohazalar”, A.G‘ulomov “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi”, T.Rustamov “O‘zbek tilida inkor kategoriyasi”, A.Sulaymonov “Hozirgi zamon o‘zbek tilida o‘tgan zamon fe‘l kategoriyalari”, S.Asiddinov “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida egalik kategoriyasi” kabi ko‘plab monzodlik ishlari va maqolalar yozilgan.

⁶ Шаҳобиддинова Ш. Категория ва категориялаштиришга боғлиқ айрим муаммолар ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. - № 6. – В. 12–15.

Xulosa qilib aytganda, kategoriya bilan bog‘liq muammolar sekin-astalik bilan atroflicha o‘z yechimini topib bormoqda.

I.2.O‘zbek va turk tillarida singlarmonizm hodisasi.

Singarmonizm – so‘z tarkibidagi unli va undoshlarning bir-biriga moslashishi, uyg‘unlashishi, muvofiqlasuvi – turkiy tillarning o‘ziga xos tipologik xususiyati bo‘lib, u turkiy so‘zning fonologik butunligi, yaxlitligini ta‘minlaydi, so‘zning chegaralarini belgilab beradi. Fonetik hodisalar silsilasida singlarmonizm mohiyatan assimilyatsiyaning – bir tovushning boshqa bir tovushni o‘ziga moslashtirishi, o‘xshash qilishining bir ko‘rinishi bo‘lib, uning ta‘siri oddiy assimilyatsiyadan ancha kuchli. Odatda, assimilyatsiya yondosh – qo‘shni tovushlar orasida bo‘ladi (kontakt assimilyatsiya) va juda ko‘p hollarda oldingi tovush o‘zidan keyin kelgan tovushni o‘ziga moslashtiradi (progressiv kontakt assimilyatsiya): chunonchi: *o‘zb chiq+gan→chiqqan, ek+gan→ekkan*. Singarmonizmning ta‘siri faqat qo‘shni tovushlar bilan cheklanib qolmaydi – u turkiy so‘zni bus-butun qamrab oladi va sintagmatik qatorda bir-biridan uzoq turgan tovushlarga ham ta‘sir qiladi (distant assimilyatsiya).

Singarmonizm dunyoning juda ko‘p tillarida mavjud, lekin umumiy tilshunoslikning yetuk namoyondalari Avgust Shleyxer, Nikolay Trubetskoy(1890-1938), Aleksandr Reformatskiy(1900-1978)larning fikriga ko‘ra, uning eng yorqin va izchil voqelanish namunasini turkiy tillardagina ko‘rish mumkin.⁷

Turkiy tillarda singlarmonizmning ibtidoiy – qadimgi davrlardan boshlab hozirga qadar amalda bo‘lgan hodisa ekanligiga hech bir turkiyshunos shubha qilmaydi, lekin uning turlari va tarqalishi masalasida ularning fikr-u qarashlari bir xil emas – bu yerda ham qadimgi turkiy tilda bobotil nazariyasi va to‘lqin nazariyasi tarafdorlarining qarashlari bir-biridan keskin farqlanadi; singlarmonizmning ko‘rinishlarining turkiy tillarda ibtidoiyligi va ularning

⁷ Реформатский А.А. Иерархия фонологических единиц и явление сингармонизма. Сб. Исследования по фонологии. М.: Наука. 1966. Б.198., Сравнительно-историческая грамматика Фонетика. В.434.

tarqalishlariga har bir nazariya tarafdorlarining fikrlari har xil. Shuning uchun, dastlab, singarmonizmning turlarini (ko‘rinishlarini) eslatib o‘tamiz.

Turkiy singarmonizm o‘zakdagi unli va undoshlarning bu o‘zakka qo‘shilib kelayotgan qo‘shimchaning tarkibidagi unli va undoshlarga ta’siri, ularni o‘ziga moslashtirishi, uyg‘unlashtirishida namoyon bo‘lib, u dastlab ikki turga:

unlilar garmoniyasiga;

undoshlar garmoniyasiga bo‘linadi.

Singarmonizmning ta’sir kuchi bo‘yicha asosiy turkiy tillarda singarmonizm ta’sirining pasayib borishiga ko‘ra quyidagi darajalanish sirasini tuzish mumkin: yoqut tili → qirg‘iz tili → xakas tili → oltoy tili → qozoq tili → totor tili → turkman tili → turk tili → ozarbayjon tili → uyg‘ur tili → o‘zbek tili.

A.M. Sherbak ta’kidlaganidek, bir bo‘g‘inli so‘zlardagi unli sifat jihatidan doimiy va mustaqil bo‘lib, ko‘p bo‘g‘inli so‘zlardagi keyingi unlilar esa birinchi bo‘g‘inga muvofiqlashadi. Masalan, *bar-gan-lar*, *kol-ga* (o‘zbek tili qipchoq shevalari), yuksaltnak (ozarbayjon tili).

Singarmonizm o‘zbek tili tarixida XI – XVII asrlarda ancha keng tarqalgan edi: *eski turkiy tilda*, *eski o‘zbek adabiy tilining* dastlabki taraqqiyot davrlarida qat’iy qonuniyat sifatida tanglay va qisman lab garmoniyasi mavjud edi. Singarmonizm o‘zbek tili tarixida qonuniyat sifatida mavjudligini o‘z tarkibida q/g‘ va g/k tovushlariga ega bo‘lgan qo‘shimchalardan q/g‘li variantlarini faqat qattiq, k/gli variantlarni faqat yumshoq o‘zaklarga qo‘shilib kelishi isbotlandi.⁸

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm sezilmas darajaga kelib qolgan. Bu hodisa ayrim so‘zlar tarkibidagina saqlangan. O‘zbek adabiy tilida singarmonizmning buzilishi, birinchi navbatda, o‘zbek tilining ichki taraqqiyoti asosida yuz berdi. Buni boshqa turkiy tillardagi singarmonizm qonuniyatiga bo‘ysunmaydigan affikslar, singarmonistik variantlarning mavjudligi ham tasdiqlaydi. O‘zbek adabiy tilidagi singarmonizmning kuchsizlanishida sug‘d, xorazmiy, saq va fors-tojik kabi sharqiy eroniy tillar hamda arab tilining ta’siri

⁸ Ne‘matov A, Axmatov N, Ahmedov A. O‘zbek tili tarixi. Buxoro,2008, 34-b.

katta bo‘ldi. Bu tillar ta’siri natijasida turkiy til (eski o‘zbek tili) fonetikasi, leksikasi, grammatikasida ayrim o‘zgarishlar yuzaga keldi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm qat’iy qonuniyat sifatida bo‘lmasa ham, uning qoldiqlari va ta’siri – ayniqsa, tarixiy so‘z yasash tizimida juda kuchli. Shevalarda, jonli nutqda bu hodisa shu darajada tarqalganki, XIX asrdan beri o‘zbek shevalari singarmonizimli va singarmonizmsiz kabi ikki turga ajratib tasnif etiladi. Adabiy nutqda ham /⁺a/, /⁺i/, /⁺o/, /⁺u/ unlilari ikkitadan nutqiy variantga – orqa qator (qattiq) /a/, /i/, /o/, /u/ va old qator (yumshoq) /a’/, /i’/, /o’/, /u’/ - ega. Bu hodisalar tilimiz bo‘yicha maktab darsliklaridan boshlab ilmiy tadqiqotlarga batafsil izohlangan. Unlilarning qattiq/yumshoq variantlarning qo‘llanilishi so‘z tarkibiga (o‘zak/negizda) qattiq yoki yumshoq undoshlarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Shuning uchun tilimizda singarmonizm qat’iy qonuniyat sifatida mavjud bo‘lmasa ham, u tilimiz uchun mutlaqo xos emas deb hukm chiqarish mutlaqo noto‘g‘ri: tilimiz, to‘lqin nazariyasi tarafdorlari talqiniga ko‘ra, unlilarning eng qadimgi davrlar uchun xos bo‘lgan xususiyatini – undoshlar tabiatining unlining qattqlik/yumshoqligini belgilanishini – o‘zida saqlab kela olgan. Tabiiyki, buning asosiy sabablaridan biri, boshqa turkiy tillarda farqlanmaydigan undoshlardagi qattqlik~yumshoqlik fonologik ziddiyatining tilimizda qisman saqlanganligidir. Shuning uchun biz tilimiz tarixi haqida gapirar ekanmiz, “o‘zbek tili singarmonizm hodisasini yo‘qotgan” deb aytishimiz unchalik to‘g‘ri emas. Biz bemalol: “Hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlari undoshlarning qattqlik-yumshoqligi unlining qatorini belgilaydigan eng qadimiy turkiy lisoniy xususiyat saqlangan shevalar asosida belgilangan,”- deb ayta olamiz. Shu bilan tilimizning boshqa turkiy tillar silsilasida:

indifferent unlilarga ega ekanligi;

/q/~k/, /gh/~g/, /x/~h/, /a^o/~/a/ fonologik zidlanishliklarga molikligi;

singarmonizmning qat’iy adabiy me’yor bo‘lmaganligi

kabi barcha xususiyatlari o‘zining to‘liq sharhini topgan bo‘ladi - fonetik tizimda tilimiz eng qadimgi davrda amalda bo‘lgan qonuniyatlarni barcha boshqa turkiy tillardan ko‘ra ko‘proq va yorqinroq saqlab qolgan.

Singarmonizm tilning uch aspektini o‘zida mujassamlashtiradi. Birinchidan, so‘zni to‘g‘ri tashkil qiladi va uning to‘g‘ri talaffuz qilinishiga ta’sir qiladi.⁹ Lekin hozirda bu funksiyani urg‘u bajaradi. Bu esa uning orfoepiya – talaffuz bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, so‘z qo‘shimchalarni o‘zaklarga ohangdoshlik asosida qo‘shilib qo‘llanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Singarmonizm turkiy tillarning asosiy qonuniyatlaridan biri bo‘lib, u orqali so‘zning sifati (fonetik nuqtai nazardan) va uning assimilyatsiyasi va urg‘u bilan bog‘liqligi aniqlanadi.¹⁰ Singarmonizm – bu til normasi bo‘lib, unga ko‘ra u tilning fonetik qobig‘i hisoblanmish unli va undoshlarni so‘zda ma’lum bir me’yorda talaffuz qilishda bir xillikka olib keladi. So‘zdagi unlilar so‘zning shakliga ko‘ra u yoki bu darajada, ya’ni yo orqa qator (qattiq), yo old qator (yumshoq), yo lablar ishtirokiga ko‘ra bir xil bo‘lishini ta’minlaydi.¹¹

Hozirgi o‘zbek tilida urg‘u va singarmonizm munosabati ham o‘rganilgan va o‘rganilishda davom etmoqda. Fikrimizning isboti sifatida, Jo‘ra Mamatovning “Hozirgi o‘zbek tilida urg‘u va singarmonizm” nomli maqolasiga murojaat etamiz.

Kombinator fonetik almashinuvlar asosida so‘zni chegaralovchi, gradiasiyalovchi urg‘u va so‘zni qoliplovchi, uyushtiruvchi singarmonizm hodisasi yotadi (Demak, urg‘u va singarmonizm bir-biri bilan chambarchas bog‘langan). Bundan ko‘rinadiki, avvalo, singarmonizm hodisasiga ham o‘zak, ham qo‘shimcha bo‘lishi kerak, unli va undoshlar garmoniyasi bo‘lishi shart. Singarmonizm hodisasi yo‘q bo‘lgan so‘zlarda uning o‘rnini urg‘u egallaydi.¹²

⁹ Рустамов А. Навоий тилининг фонетик хусусиятлари// Навоий ва адабий таъсир масалалари. Тошкент, 1968. 273- бет.

¹⁰ Виноградов В.А. Сингармонизм и фонология слова. А.К.Д. М, 1966. С.7.

¹¹ Кязимов Ф. Принципи сингармонизма в азербайджанском языке // Изв. ОЛЯ АН СССР. Т. XIII.М.,1954.С.46.

¹² Маматов Ж. Ҳозирги ўзбек тилида урғу ва сингармонизм//Ўзбек тили ва адабиёти. – 2012. - №4. – В. 67.

O‘zbek tilida bo‘lgani kabi turk tilida ham singarmonizm mavjud. Turk tilida singarmonizm ya’ni, unlilar uyg‘unligi fonetik hodisasi mavjud bo‘lib, bu fonetik qonuniyatga ko‘ra, agar so‘z o‘zagi qattiq unli bilan tugagan bo‘lsa, unga qattiq unlili qo‘shimcha, agar o‘zak yumshoq unli bilan tugasa, unga yumshoq unlili qo‘shimcha qo‘shiladi: *köylerimizdekiler* “qishloqlarimizdagilar”, *tarlalarımızdan* “dalalarimizdan” kabi.

Turk tilida 29 ta harf mavjud bo‘lib, shulardan 8 tasi unlidir. Shu 8 unli qattiq va yumshoqligiga ko‘ra farqlanadi. Ularning yozuvdagi ifodasi ham turlicha:
Kalin ünlüler(qalin unlilar): Aa, Iı, Oo, Uu.

2- İnce ünlüler (yupqa unlilar): Ee, İi, Öö, Üü

Turk tili singarmonizm qonuniyatiga amal qilgani uchun undoshlar qattiq yumshoqligini u bilan yonma-yon kelgan unli tovush belgilaydi. Bu esa ma’no farqlashga xizmat qiladi.

Undosh harflar esa 21 tani tashkil etadi. Undoshlar ham ikkiga, qattiq va yumshoq undosh harflarga bo‘linadi:

Sert ünsüzler (qattiq undoshlar): Ff, Ss, Tt, Kk, Çç, Şş, Hh, Pp.

2- Yumuşak ünsüzler (yumshoq undoshlar) : Bb, Cc, Dd, Gg, Ğğ, Jj, Ll, Mm, Nn, Rr, Vv, Yy, Zz.

So‘zdagi oxirgi yoki oxirgidan bitta oldingi harf qalin unli bo‘lsa **’da** yoki **’ta** qo‘shimchasi qo‘shiladi:

a, ı, o, u => -da / -ta (**Fabrika’da** – fabrikada)

So‘zdagi oxirgi yoki oxirgidan bitta oldingi harf yupqa unli bo‘lsa **’da** yoki **’ta** qo‘shimchasi qo‘shiladi:

e, i, ö, ü => -de / -te (**Evd_e** – uyda , **Şehir’de** – Shaharda)

So‘zdagi faqat oxirgi harf qattiq undosh bo‘lsa **-ta** yoki **-te** qo‘shiladi

f, s, t, k, ç, ş, h, p => -ta / -te

Misollar:

Agar oxirgidan bitta oldingi harf qalin unli (a, ı, o, u) bo‘lsa, va oxirgi harfi qattiq undosh (f, s, t, k, ç, ş, h, p) bo‘lsa, u holda **-ta** qo‘shiladi

Masalan: uçak'ta, taraf'ta

Agar oxirgidan bitta oldingi harf yupqa unli (e, i, ö, ü) bo'lsa, va oxirgi harfi qattiq undosh (f, s, t, k, ç, ş, h, p) bo'lsa, u holda –**te** qo'shiladi. Masalan: Taşkent'te, Gaziantep'te.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda singarmonizm hodisasi o'zbek tilidan ko'ra ko'proq turk tilida saqlanib qolgan va so'zning ma'nosini farqlashda katta ahamiyatga ega. Lekin biz bu bilan o'zbek tilidan butunlay yo'qolib ketgan demoqchi emasmiz, faqatgina bugungi kunda asosan shevalarda saqlanib qolgan, ba'zan singarmonizmning o'rnini urg'u egallashi mumkin.

II bob. Egalik kategoriyasi.

Jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga yetib kelguncha ozoq tarixiy taraqqiyot davrini, “o‘sish” davrini bosib o‘tdi. U turli maktablar, oqimlar, ta‘limotlar ta‘sirida bo‘ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama qarshiligiga, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko‘plab manbalarga “guvoh bo‘ldi”, shakllandi. Anig‘i, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o‘ziga xos va o‘ziga mos doimiy mustahkam o‘rin egalladi.

Tilshunoslik fanining qadimgi eng muhim manbalari, ta‘limotlari, maktablari ilk bor qadimgi Hindiston, Yunoniston, Rim va Xitoy mamlakatlarida maydonga keldi.

O‘rta va yangi asrlarda esa til haqidagi fan Yevropada, Arabiston va O‘rta Osiyoda taraqqiy qildi.

Qadimgi asrlar tilshunosligida egalik kategoriyasi dastlab hind, yunon, rim va xitoy tilshunoslik maktablari tomonidan o‘rganilgan.

Qadimgi hind tilshunoslarining morfologiya sohasida katta ishlarni amalga oshirganliklarini alohida ta‘kidlash lozim. Ular fonetik jarayonlar kabi, bu yo‘nalishda ham yunon tilshunoslaridan ancha ilgari ketganlar. Hind tilshunoslari morfologiyani (Guru ta‘limotiga ko‘ra) uch bo‘limga bo‘lib o‘rganadilar. 1. So‘zlar tasnifi – so‘z turkumlari. 2. So‘z yasalishi. 3. So‘z o‘zgarishi. Hindlar tilda mavjud so‘zlarni to‘rt so‘z turkumi doirasida o‘rganganlar. Bular: *ismlar, fe’llar, old ko‘makchilar va yordamchilardir*¹³. Ular olmoshlar va ravishlarni ot va fe‘l turkumlariga qo‘shib o‘rganishgan.

O‘rta asrlar tilshunosligida esa egalik kategoriyasi dastlab arab tilshunosligi tomonidan, undan so‘ng esa O‘rta Osiyolik tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan.

Arab tilshunosligining dastlabki markazlari Iroqning Basra va Kufa shaharlari hisoblangan hamda ular VII – VIII asrlarga tegishlidir. Arab tilshunosligi o‘z taraqqiyoti davrida hind va yunon tilshunosligi yutuqlariga, o‘z an‘analariga

¹³ Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд – Т.: “Академнашр”, 2012, 4-9-б.

tanqidiy va ijobiy yondashgan. Arablar o‘z tillarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda undan foydalanganlar.

Arab tilshunoslari morfologiyada, Aristotel kabi, uchta so‘z turkumini – ismun (ot), felun (fe’l) va harfun (yuklama, yordamchi so‘zlar va affikslarni) ajratadilar. Otni keng ma’noda olib, uning tarkibiga ot, sifat, olmoshlarni ham kiritadilar.

Otlarni atoqli va turdosh otlarga, turdosh otlarni esa aniq va mavhum otlarga ajratadilar. Otlarning son, egalik, kelishik kategoriyalari ancha mukammal tasvirlanadi.

Turkiy tilga bag‘ishlangan muallifi noma’lum “At – tuhfatus zakiyatu fillug‘atit turkiya” (“Turkiy til haqida noyob tuhfa”) asarida otlarda egalik shakllari birlik va ko‘plik ko‘rinishiga, tuzilishiga ega ekanligi aytiladi. Qiyoslang: bashim, ko‘zim – bashimiz, ko‘zimiz; bashing, ko‘zing – bashingiz, ko‘zingiz; bashi, ko‘zi – bashlari, ko‘zlari.

Eron shohi Nodirshohning kotibi, saroy tarixchisi astrobodlik Nizomiddin Muhammad Hodi al Husayni as Safaviyning – Mirza Mehdixonning (XVIII) “Sangloh”(1760) lug‘ati o‘zining har tomonlama mukammalligi, puxtaligi, katta salmoqqa egaligi bilan yetakchilik qiladi.

Asarda leksikologiya, leksikografiyaga va grammatikaga oid masalalar yuzasidan keng fikr yuritiladi.

Shuningdek, Mehdixon, egalik qo‘shimchalari, sonlar va ularning turlari: tartib (- nchi, - inchi), jamlovchi (- ov, -ovla, -lon) – birov, ikkov, uchovla, uchchovlon, taqsim sonlar (- ar, - in) – yuzar, birin haqida, olmoshlar – kishilik (man, san, biz, siz), ko‘rsatish: (bu, ul, shul, o‘shal, mun, anlar, alar), ko‘makchilar (uchun, ila, ilan, bilan, birla, birlan) hamda fonetik hodisalar (eliziya–bo‘yun-bo‘yni, og‘iz-og‘zi) haqida ma’lumot beradi.

II.1.O‘zbek tilida egalik kategoriyasining o‘rganilishi.

Egalik kategoriyasining qo‘llanishi, yasalishi, mazmuni va o‘zaro munosabati o‘zbek tilshunosligida atroflicha tadqiq qilingan va o‘rganilgan, ya’ni

tilshunoslarimiz bu mavzuga befarq qolishmagan. O‘zbek tilshunosligida Sh.Shoabdurahmonov, A.G‘ulomov, Sh.Rahmatullayev, G‘.Zikrillayev, G‘.Abdurahmonov, U.Tursunov, H.Ne‘matov va turkiyshunoslikda N.K.Dimitriev, S.N.Ivanov, N.A.Baskakov, A.K.Borovkov kabi qator olimlar tomonidan egalik shaklining o‘ziga xos xususiyatlari (mazmun tomoni, miqdori, turi, tartibi, o‘rni) va boshqa kategorial shakl bilan monosabati o‘rganilgan.

Shu bilan birga R.R.Sayfullayevaning “Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya” nomli monografiyasida ham egalik kategoriyasi mavzusi keng yoritilgan. “Egalik qo‘shimchasining xususiy qo‘llanishida “butun-qism” ma’nosining yuzaga chiqishini ham kuzatish mumkin: *o‘quvchilarning biri, talabalarning a‘lochisi, odamlarning o‘qigani* kabi. Egalik kategoriyasining umumiy grammatik ma’nosi kategorial va yondosh ma’no asosida bir necha oraliq grammatik ma’noga ajraladi: “Qarashlilik/mansublik”: Ilhomning kitobi, bolaning otasi, qo‘yning boshi. “Foil-harakat”: Adibaning kulishi, sening qarishing.

“Aniqlanmishni aniqlovchiga bog‘lash”: «Аниқланмишни аниқловчига боғлаш»: qovun bozori, go‘sht do‘koni.

Egalik shakli, aytilganidek, kelishik shaklidan aloqaning “yo‘nalishi”ga qarab farqlanadi. Kelishik birikmadagi keyingi so‘zga, egalik shakli oldingi so‘zga ishora qiladi. Egalik shakli dastlab birlik son va ko‘plik son shakliga ajraladi. Bunda farqlanish son kategoriyasining ushbu shaklidagi tajallisi asosida yuz beradi: birlik sondagi shakli *-(i)m, -(i)ng, -(s)I* va ko‘plik son shakli *-(i)miz, -(i)ngiz, -lari*. Son asosida bo‘linish vertikal ko‘rinishga ega bo‘lsa, shaxs asosidagi bo‘linish gorizantal ko‘rinish kasb etadi. Shaxs asosidagi farqlanish ham egalik kategoriyasida aks etgan o‘zga kategoriyaga xos hodisa. Demak, “egalik, “son va “shaxs” ma’nosidan faqat birinchisi ushbu kategoriyaga xos ma’no hisoblanadi. Boshqa kategoriya ma’nosining tajallisi asosida egalikning oltita shakli farqlanadi.

O'zga kategoriya ma'nosidan xalos qilinsa, egalikning birgina ma'nosi qoladi, xolos."¹⁴

Abdurauf Fitratning "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf" asarida otlarni ma'nosiga ko'ra o'rin, qurol, ish otlariga; tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma otlarga bo'ladi. Grammatik shakliga ko'ra esa birlik-ko'plik shaklidagi otlarni hamda otlarning kichraytirish-erkalash shakllarini ajratadi. Otlarning eng muhim grammatik kategoriyalari sanaluvchi egalik va kelishik kategoriyalari haqida fikr yuritilmaydi.

H.A.Dadaboyev va Z.T.Xolmanovanning "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" nomli asarida egalik kategoriyasi haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: "Turkiy tillarda o'zakning unli yoki undosh bilan tugashiga ko'ra egalik qo'shimchalari turli variantlarda qo'shiladi. Egalik qo'shimchalarining variantlari singarmonizmnisbatan ko'proq sanalgan tillarda o'zaklarning qattiq-yumshoqligiga ko'ra ham farqlanadi. Egalik shaklini olgan so'z oldidan qaratqich kelishigi shaklida so'z qo'llanadi. Shunga ko'ra, ba'zi olimlar bu hodisalarni bir-biriga bog'laydilar. Qadimgi bobo til davrida qaratqich kelishigi va old qo'shimchalarning bo'lmaganligi turkiy tillarda egalik qo'shimchalarini vujudga keltirgan, degan fikrlar ham mavjud.

Egalik kategoriyasining evolyutsiyasi to'g'risidagi fikrlarda munozarali o'rinlar bor. Shulardan biri egalik shakllarining kishilik olmoshlari bilan genetik aloqasidir. Ayrim turkologlar fikricha, egalik affikslarining ayni vaqtda shaxs va son ma'nolarini ifodalashi ularning kishilik olmoshlari asosida paydo bo'lganligini ko'rsatadi."¹⁵

Y.Abdurasulovning "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" nomli asarida egalik kategoriyasi haqida quyidagi fikrlar keltirib o'tilgan: "Grammatik egalik kategoriyasi ot turkumiga xos grammatik ko'rsatgichlar yig'indisi bo'lib barcha turkiy tillar uchun umumiydir. Bu kategoriyaning o'ziga xosligi shundaki, u

¹⁴ R.R.Sayfullayeva. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Toshkent, 2008,392b.

¹⁵ H.A.Dadaboyev, Z.T.Xolmanova. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Toshkent, 2015, 78-bet.

bir vaqtning o'zida ham shaxsga qarashli predmetni, ham shu predmetga egalik qiluvchi shaxsni anglatadi. Masalan, *kitob* so'zidagi **-i qo'shimchasi**, bir tomondan predmet (kitob)ning III shaxsga qarashlilikini bildirsa, ikkinchi tomondan shu shaxsning predmet (kitob)ga egaligini anglatadi.

Turkiy tillarda grammatik egalik ma'nosi turli usullar bilan ifodalanadi:

1. Morfologik usul, ya'ni so'z negizlariga egalikni anglatuvchi maxsus qo'shimchalarni qo'shish orqali: tuva tilida *tevem, teven, tevezi, tevevis, tevener, tevezi* kabi.

2. Morfologik-sintaktik usul, ya'ni qaratuvchi qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi va qaralmish-egalik affiksini olgan ot yoki otlashgan leksema: *turk. benim dostum, senin dostun, onun dostu, bizim dostumuz, sizing dostunuz, onun dostu* kabi.

3. Sintaktik usul, ya'ni qarashlilikning egalik qo'shimchalarsiz, so'z tartibi usulida ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilida *bizning uy, uy meniki*; Chuvash tilida *man al (mening qo'lim), san al(sening qo'ling)* kabi."¹⁶

Yuqoridagi har ikkala asarda ham egalik kategoriyasi keng doirada o'rganilgan, ya'ni egalik kategoriyasi aslida barcha turkiy tillarda mavjud ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Umuman olganda, egalik kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari sanab o'tilgan.

Bundan tashqari yana XX asrning 60-70 yillarda o'zbek tilshunosligida himoya qilingan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari ham mavjud. Masalan, Aslididinov Samariddin. *Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида эгалик категорияси.* (1964, А.Ҳ.Сулаймонов раҳбарлигида.) ва Назаров Карим. *Ўзбек халқ шеваларида эгалик аффикслари.* (1964, А.Ҳ.Фуломов раҳбарлигида.)

¹⁶ Абдурашулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий - тарихий грамматикаси. Т.: Фан, 2009.- 886.

G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudovning "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" nomli darsligida ham otlardagi egalik shakllarining eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek tili o'rtasidagi farqlari solishtirib o'rganilgan: "Otlarda egalik shakllarining hosil bo'lishi bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. Egalik affikslarining turli fonetik shakllarga ega bo'lishi bilan eski o'zbek tili hozirgi o'zbek tilidan farqlanadi.

Egalik affiksi shakllaridan qaysi birining ishlatilishi shu affiksni qabul qiluvchi so'zning fonetik tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan hodisadir."¹⁷

G'.A.Abdurahmonov, Sh. Sh. Shoabdurahmonov, A. P. Hojiyevlarning "O'zbek tili grammatikasi. Morfologiya" nomli asarning ushbu tomi so'z yasalishi, morfologiyaga bag'ishlangan bo'lib, unda barcha so'z turkumlari, har bir turkumga oid so'zlarning semantik va grammatik xususiyatlari tahlil etiladi. Bu asarda egalik kategoriyasi atroflicha yoritilgan. Masalan: egalik affiksi bilan bog'liq holda sodir bo'ladigan omonimiya(egalik affiksi bilan bog'liq holda sodir bo'ladigan omonimiyani tahlil qilish so'z tarkibini morfemalarga to'g'ri ajratishda yordam beradi. Bunday omonimiya bir necha o'rinda sodir bo'ladi); egalik affiksining o'zi qo'shilgan negizning boshqa negiz bilan bog'lanishida ishlatilishi(egalik affiksi biror negizga turli shart-sharoitda qo'shiladi. Uning ishlatilishida avvalo ikki holatni farq qilish kerak: Egalik affiksi o'zi qo'shilgan negizning boshqa bir negiz bilan bog'lanishida ishlatiladi: *Nahotki shu olamshumul ishlarda mening ham ulushim bo'lsa...* (J.Abdullaxonov)

Egalik affiksi o'zi qo'shilgan negiz doirasida, boshqa biror negizga bog'lanmagan holda ishlatiladi: Zap gapirding-da, qizim (J.Abdullaxonov)); egalik affiksining qaratqich kelishigidagi negiz bilan bog'lanishda ishlatilishi; egalik affiksining chiqish kelishigidagi negiz bilan bog'lanishda ishlatilishi; egalik affiksining bosh kelishigidagi negiz bilan bog'lanishda ishlatilishi; egalik affiksining o'zi

¹⁷Abdurahmonov G', Shukurov Sh, Mahmudovning Q.O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.Toshkent, 2008.-78b.

qo‘shilgan negiz doirasida ishlatilishi; egalik affiksining grammatik bog‘lanmagan negizlar negizlar doirasida ishlatilishi.¹⁸

II.2. Turk tilida egalik tizimi.

Turk tilidagi egalik qo‘shimchalari o‘zbek tilidagi mazkur qo‘shimchalar bilan deyarli bir xil. Faqat ba‘zi juz‘iy fonetik farqlar bor, xolos. Egalik affikslari uch shaxsning birlik va ko‘plik formalariga ega bo‘lishidan tashqari, o‘zi bog‘lanayotgan so‘zning fonetik tabiatiga qarab, turli ko‘rinishlarda qo‘llanishi mumkin: so‘zning unli yoki undosh bilan tugallanishi, negizining qattiq yoki yumshoq variantda bo‘lishi hamda uning lablangan yoki lablanmagan tovushlarga ega bo‘lishi kabilar. Keyingi ikki holat hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida o‘z ta‘sirini yo‘qotgan. Shuning uchun hozir egalik affikslari 10-11 xil variantda uchraydi. Vaholanki ko‘pgina turkiy tillarda egalik affikslari 20-30 dan ortiq variantlarda qo‘llanadi. O‘zbek tili tarixida ham yuqoridagi fonetik sharoitlar ta‘sirida egalik affikslari xilma-xil formalarda qo‘llangan.

Türkçe iyelik ekleri

- | | |
|---------------------------|----------------------------|
| 1. –m, -im, -im, -un, -ün | -imiz, -imiz, -umuz, -ümüz |
| 2. –in, -in, -un, -ün | -iniz, -iniz, -unuz, -ünüz |
| 3. -sı, -si, -su, -sü | -ları, -leri, -lari, -leri |

<p>Benim ... –im (-im, -m)</p> <p>Senin –in (-in, -n)</p> <p>Onun-i (-ı, -sı)</p> <p>Bizim-imiz (-ımız, -mız)</p> <p>Sizin –iniz (-ınız, -nız)</p> <p>Onların ...-i (-ı, -sı)</p>	<p><i>Masalan:</i></p> <p>Benim <u>evim</u>’de üç oda var – <i>Mening uyimda uch xona bor</i></p> <p>Senin <u>yaşın</u> kaç’ta – <i>Sening yoshing nechada</i></p> <p>Onun <u>odası</u> nasıl – <i>Uning uyi qanday</i></p> <p>Bizim <u>evimiz</u> çok büyük – <i>Bizning uyimiz juda katta</i></p> <p>Kardeşin<u>iz</u> nerede – <i>Birodaringiz qayerda</i></p>
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

¹⁸ Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.:Фан, 1975.-144-184 б.

	Onlarning kitabi burada – <i>Ularning kitobi bu yerda</i>
--	-----------------------------------------------------------

Qo‘shimcha qo‘shilayotgan so‘zning harflariga ko‘ra qo‘shimchalar o‘zgarishi mumkin. Bu, so‘zdagi oxirgi unli (oxirgi undosh harfdan oldin kelgan unli) harfga bog‘liq. Qalin va yumshoq unliga ko‘ra o‘zgaradi. Qo‘shimchalar:

<p>e, i => -im, -in, -i, -imiz, -iniz, -i</p> <p>a, ɪ => -im, -in, -i, -imiz, -iniz, -i</p> <p>o, u => -um, -un, -u, -umuz, -unuz, -u</p>	<p><i>Masalan:</i></p> <p>Kardeş-im , Onun ev-i</p> <p>Kitap-im , Senin ad-im</p> <p>Oyun-um , Bizim okul-umuz</p>
<p>ö, ü => -üm, -ün, -ü, -ümüz, -ünüz, -ü</p> <p><i>Unlidan keyin</i> => -m, -n, -si, -miz, -niz, -si</p> <p><i>Agar oxirgi harf -k bilan tugasa, u holda bu -ğ harfiga aylanadi.</i></p>	<p>Üzüm-üm , Benim otobüs-üm</p> <p>Anne-m , Onun baba-si</p> <p>Uçak => bizim uçağımız</p> <p>Durak => Otobüs durağı</p>

Agar gapda kishilik olmoshi (Benim, Senin, Onun) mavjud bo‘lsa, u holda qo‘shimcha qo‘shilmasligi ham mumkin. Masalan:

Benim kitap = **Benim kitabim** - *Mening kitobim*. Har ikki gapning ma‘nosi bir xil.

Egalik affikslarining ifodalanish usullarida quyidagi holatlarni ko‘rish mumkin:

Morfologik usul;

Morfologik-sintaktik usul;

Sintaktik usul.

Bu usullarni quyidagi misollar bilan ifodalash mumkin:

Morfologik usul, ya'ni egalik ma'nosi egalik affiksi orqali ifodalanib, qaratuvchi so'z keltirilmaydi: ablam, ablan, ablası (opam,opang,opasi).

Morfologik-sintaktik usul, ya'ni qaratuvchi so'z (egalik subekti) qaratqich kelishigida qaralmish (egalik obykti) egalik formasida keladi: benim ablam, senin ablan, onun ablası.

Sintaktik usul, bu usul quyidagi ikki ko'rinishga ega:

Qaratuvchi (egalik subyekti) qaratqich kelishigida, qaralmish (egalik obykti) affikslarsiz keladi:

Bizim Ayşe

Bizim mutfak

Bizning Oysha

Bizning oshxona

Qaratuvchi (egalik subyekti) affikssiz, qaralmish esa (egalik obykti) egalik formada keladi. Bu usul III shaxs uchun xos bo'lib, qaratuvchi so'z (egalik subyekti) ot bilan ifodalanadi. *Türk edebiyati*.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida abstrakt egalik formasi – **niki** mavjud: *seniki, Ra'noniki* kabi. Bu affiks tarixan qaratqich kelishigi affiksi asosida rivojlangan, ya'ni qaratqich kelishigi affiksiga xoslik, munosabat kabi ma'nolarni bildiradigan sifat yasovchi –**ki, -g'i** affiksi qo'shilgan. Shu yo'l bilan abstrakt egalik ma'nosini ifodalovchi –**ninki (-inki)** affiksi vujudga kelgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu affiks –**niki** formasiga aylangan: *Ey, boyo'g'li bizniki* kabi qabul qilingan. Turk tillarida esa bu affiksga –**dir** qo'shimcha qo'shilishi bilan hosil bo'ladi.¹⁹

Endi hozirgi kunda egalik kategoriyasining asosiy affikslarini o'zbek va turk tilida qiyoslab o'tamiz:

O'zbek tilida	Turk tilida
-(i)m -(i)miz	-m, -miz, -miz
-(i)ng -(i)ngiz	-n, -niz, -niz
-i -(lar)i	-si, -si, - ları, -leri

¹⁹ Абдурахмонова М. Туркий тилларда эгалик категорияси. Ўзбек тили ва адабиети. 2001, № 3, 53-б.

Shu bilan birga qo‘shimchasi (-da, -de) ham birga qo‘shilishi mumkin. Masalan:
Benim ev**im**’**de** - *Mening uyimda.*

Senin ev**in**’**de** – *Sening uyingda*

Ammo, Onun (*Uning*) yoki Onlarning (*Ularning*) olmoshlaridan keyin egalik (-im, -in, -i ...) va bildirish (’da, ’de, ’te) qo‘shimchasi kelsa o‘rtada **-n-** harfi qo‘shiladi.

Masalan: (Onun evi) Onun evinde (Onun ev-i-**n**-de) – *Uning uyida* (Onlarning odasi)

Onlarning odasida (Onlarning oda-si-**n**-da) - *Ularning xonasida*

Annem senin ev**inde** ne yapıyor ? – *Onam sening uyingda nima qilyapti?*

Onlarning dükkan**ında** her şey var – *Ularning do‘konida hamma narsa bor*

O‘zbek tilida ham turk tilida ham egalik affikslaridan I va II shaxs ko‘rsatkichlari unli tovush bilan tugagan so‘zlarga, III shaxs ko‘rsatkichli undosh tovush bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda fonetik variantlarga ega bo‘ladi: biribchi va ikkinchi shaxs affikslari undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda **i** tovushi, III shaxs egalik affiksi unli bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda **s** tovushi orttiriladi: **kitobim, kitobing, kitobimiz, kitobingiz**. Bunda **i** va **s** tovushlari fonetik talabga ko‘ra orttirilgan bo‘lib, tutashtirish affiksi vazifasini bajaradi.

O‘zbek tilida

Birlik	Ko‘plik
Otam, kitobim	otamiz, kitobimiz
Otang, kitobing	otangiz, kitobingiz
Otasi, kitobi	otasi, kitob(lar)i

Turk tilida

baba-m, kitap-ım	babamız, kitabızım
baba-n, kitap-ın	babanız, kitabınız
baba-si, kitap-ı	babaları, kitablari

Barchamizga ma’lumki, turk tilida ham kelishik qo‘shimchalari mavjud. So‘z kelishik qo‘shimchasining qaysi shaklini olganiga qarab egalik qo‘shimchasi ham o‘zgaradi. Masalan:.....**in** (**-ım, -un, -nın, -nun**) **i** (**-i, -u, sı, su**)

...Ahmet-**in** ...ev-**i**

...Araba-**nin** ...kapı-**sı**

E'tibor bersangiz qo'shimchalar so'zning oxirgi harfiga ko'ra o'zgarmoqda. Qaysi holda qanday qo'shimcha qo'shilishini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin (qaratqich kelishigi misolida):

<p>Oxirgi harf quyidagi unlilar bilan tugasa</p> <p>e, i => ...-nin, ...-si</p> <p>a, ı => ...-nin, ...-sı</p> <p>o, u => ...-nun, ...-su</p> <p>ö, ü => ...-nün, ...-sü</p> <p><i>Masalan:</i></p> <p>Kardeşim<u>in</u> annesi – birodarimning onasi</p> <p>Mustafan<u>ın</u> ailesi – Mustafaning oilasi</p> <p>Odan<u>ın</u> kapı<u>sı</u> – Xonaning eshigi</p> <p>Mahmüt<u>un</u> komşusu – Mahmutning qo'shnisi</p> <p>Komşu<u>nun</u> arabaları – qo'shnining Moshinalari</p>	<p>Agar unlidan keyin undosh harf kelsa:</p> <p>e, i (+undosh) => ...-in, ...-i</p> <p>a, ı (+undosh) => ...-ın, ...-ı</p> <p>o, u (+undosh) => ...-un, ...-u</p> <p>ö, ü (+undosh) => ...-ün, ...-ü</p> <p><i>Masalan:</i></p> <p>ev<u>in</u> sahibi - uyning egasi</p> <p>Hasan<u>ın</u> evi - Hasanning uyi</p> <p>Mahmut<u>un</u> dersi – Mahmutning darsi</p> <p>Otobüs<u>ün</u> şoför<u>ü</u> – Avtobusning haydovchisi</p> <p>Odan<u>ın</u> kapı<u>sı</u> – xonaning eshigi</p>
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Egalik kategoriyasining qo'llanish tizimini yoritishda egalik qo'shimchalarining alohida so'z tarkibida hamda so'z birikmasi tarkibida ifodalagan ma'nolarining o'ziga xosligini va farqlarini ajratish zarur. So'z tarkibida egalik kategoriyasi grammatik jihatidan shaxsga tegishli munosabatini ifodalaydi (onam, onang, onasi). So'z birikmasi tarkibida esa ham shaxslar munosabatini (barcha shaxs-sonda) hamda predmetga munosabatini ifodalaydi. Masalan: *uning kitobi, bizning uyimiz.*

Muhimi shundaki, turk tilida soʻzlar qanday talaffuz qilinsa shunday yoziladi.
Egalik kategoriyasining qaysi shakli qoʻshilishi ham shunga asoslanadi.

III bob. Kelishik kategoriyasi.

Filolog olimlarimizning haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, tilshunoslikning eng muhim manbalari, ta'limotlari, maktablari ilk bor qadimgi Hindiston, Yunoniston, Rim va keyinchalik Xitoy mamlakatlarida paydo bo'lib, o'rta va undan keyingi asrlarda esa bu boradagi qarashlar Yevropa, Arabiston, O'rta Osiyoda taraqqiy qilgan. Tilshunoslikka doir ilmiy kuzatishlarning shunchalik qadimiyligiga qaramasdan, tilshunoslik fani XIX asrning boshlariga kelib mustaqil fan sifatida tan olindi va uzoq asrlar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar, kuzatishlar, g'oyalar va tajribalar natijasi o'laroq o'zining o'rganish obyekti va tekshirish metodlarini kashf etdi.

Hindiston tilshunosligi bundan o'n besh asr ilgari qadimgi hind – sanskrit tilida bitilgan madhiyalar, ya'ni vedalarni jonli hind tilida izohlash, sharhlash, xalq jonli tiliga yaqinlashtirish ehtiyoji tufayli paydo bo'ldi. Qadimgi hind olimlari tilning tovushlar tizimi – fonetikasi, morfologiyasini chuqur o'rganganlar va bu borada katta yutuqlarga erishganlar.

Qadimgi hind tilshunoslarining morfologiya sohasida katta ishlarni amalga oshirganliklarini alohida ta'kidlash lozim. Ular fonetik jarayonlar kabi, bu yo'nalishda ham yunon tilshunoslaridan ancha ilgarilab ketganlar. Hind tilshunoslari morfologiyani (Guru ta'limotiga ko'ra) uch bo'limga bo'lib o'rganadilar. 1. So'zlar tasnifi – so'z turkumlari. 2. So'z yasalishi. 3. So'z o'zgarishi. Hindlar tilda mavjud so'zlarni to'rt so'z turkumi doirasida o'rganganlar. Bular: *ismlar, fe'llar, old ko'makchilar va yordamchilardir*²⁰. Ular olmoshlar va ravishlarni ot va fe'l turkumlariga qo'shib o'rganishgan.

So'z turkumlarini o'rganish mana shu davr – hind tilshunosligi faoliyati davridan boshlangan, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Qadimgi hind tilshunoslari so'zlarni tahlil qilish, tarkibini o'rganishda ham ilgarilab ketganlar. Ular so'z tarkibini uch

²⁰ Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд – Т.: Академнашр, 2012, 4-9-б.

qismga bo'ladilar. 1. O'zak. 2. Suffiks. 3. Qo'shimcha, ya'ni turlovchi qo'shimchalar. Yevropa tilshunoslari hind tilshunoslarining bu boradagi qarashlariga tayanib, so'zlar tarkibini o'zak, so'z yasovch va so'z o'zgartiruvchilarga ajratib, bu morfemalarni o'zaro farqlaganlar. Hind olimlari erishgan yutuqlardan yana biri – kelishiklarning farqlanishidir. Ular o'z ishlarida yettita kelishikni farqlab ko'rsatganlar. **1. Bosh kelishik. 2. Qaratqich kelishigi. 3. Jo'nalish kelishigi. 4. Tushum kelishigi. 5. Qurol kelishigi. 6. Chiqish(ablativ) kelishigi. 7. O'rin kelishigi.**

Hind tilshunoslari tilning sintaktik qurilishi bilan chuqur shug'ullanmagan bo'lsalar-da, so'zlarning birikish tartibi, kelishik, zamon, mayl shakllarining gapdagi o'rniga ahamiyat berganlar. Biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusiga aloqador bo'lgan dastlabki tadqiqotni Hindiston olimlari boshlab berganligini alohida ta'kidlashni istardik. Aytish mumkinki, ot so'z turkumi va uning muhim morfologik xususiyatlaridan biri bo'lgan kelishiklarning o'rganilish tarixi hind tilshunosligi bilan bevosita bog'liqdir.

Hind tilshunosligida "Ashtadxyan" nomli sanskrit tili grammatikasining 3996 ta qoidasini she'riy usulda yozgan olim Panini tilshunoslik tarixida alohida o'ringa ega bo'lib, uning bu asari ikki ming yildan ko'proq davr mobaynida eng muhim va asosiy o'quv qollanma vazifasini o'tab kelgan. U tilni sistema sifatida tushundi, so'z turkumlarini farqladi, so'z tarkibini o'rgandi, o'zak, qo'shimcha, urg'u, intonatsiya va boshqa til hodisalari yuzasidan qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirdi. Melodiy XIII asrga kelib hind tilshunosi Vopadeva tomonidan tuzilgan "Sanskrit tili grammatikasi" Panini grammatikasidan so'ng bu borada yangilik bo'ldi. Vopadevadan so'ng hind tilshunosi Yaska so'z, so'zning morfologik tarkibi, ma'nosi, vazifasi bo'yicha ilmiy kuzatishlar olib borib, bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlarni umumlashtirgan.

Keyinchalik qadimgi Yunonistonda ham Hindistonda bo'lgani kabi, matnlarni o'rganish, so'zlarni tahlil qilish, ularga izoh berish, mohiyatini ochish asosida fonetika, grammatika, leksika sohalarida ilmiy kuzatishlar olib borganlar.

Yunon tilshunosligining taraqqiyoti “Falsafiy davr” va “Grammatik davr” kabi ikki bosqichga bo‘linadi. Yevropa tilshunoslik fanining markazi bo‘lgan Yunonistonda tilshunoslik fani yunon falsafasining yetakchi qismi sifatida yuzaga keladi. Olimlar bu sohada juda katta, salmoqli ishlarni amalga oshiradilar.

Qadimgi yunon faylasuflari Anaksimenes, Pridik, Protagora, Platon, Aristotellar olib borgan kuzatishlar natijasida stilistika, sinonimika, morfologiyaning o‘ziga xos jihatlari ochib berildi, gaplarning turlar, ot va fe‘l, otlarning rod(jins) kategoriyasi, kelishiklar va fe‘l zamonlari haqida qimmatli ma‘lumotlarni bayon etdilar. Ayniqsa, stoiklar so‘zlarni besh turkumga bo‘ldilar. **1. Fe‘l. 2. Bog‘lovchi. 3. Artikl. 4. Atoqli otlar. 5. Turdosh otlar.** Ular beshta kelishik haqida ma‘lumot berishgan. Bular:

1. Bosh kelishik. 2. Qaratqich kelishigi. 3. Jo‘nalish kelishigi. 4. Tushum kelishigi. 5. Chaqirish(звательный) kelishigi.

Yunon tilshunosligining grammatik davrida ijod qilgan Aristarx(milodgacha bo‘lgan 215-143-yillar) qirqa yaqin shogirdlari bilan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borar ekan, Gomer ijodini mukammal o‘rganib chiqadi va uning asarlarining tekshirilgan to‘liq matnini yaratadi. Aristarx so‘z turkumi haqidagi ta‘limotni mukammal ishlab chiqadi. Aristarx va uning shogirdlarining yana bir katta xizmati shundan iborat bo‘lganki, ular so‘z turkumlarini sakkiz turkumga ajratadi. Bular: **ot, fe‘l, sifatosh, artikl yoki ko‘rsatkich, olmosh, old ko‘makchi, ravish va bog‘lovchi.** Tilshunoslik borasida olib borilgan tadqiqotlarning qadimiyligi bilan ajralib turadigan hind tilshunoslari ravishni alohida so‘z turkumi sifatida ajratmagan edilar. Yunonlar esa ulardan farqli ravishda, fe‘l bilan aloqaga kirishuvchi ravish so‘z turkumini ham mustaqil turkum sifatida farqlaganlar. Ammo sifat va sonlarni ot so‘z turkumiga qo‘shib yuborganlar. Bu davr tilshunoslari yunon tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bo‘yicha katta ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirib, ayniqsa, morfologiyaga oid ko‘plab masalalarni mukammal o‘rgandilar.

Miloddan oldingi IV asr o'rtalaridan milodiy VI sar boshlarigacha bo'lgan davrda qadimgi Rim tilshunosligi taraqqiy etdi. Bunda Yuliy Sezar, Mark Terensiy Varron, Eliya Donata, Verriy Flakk, Prissian va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. Qadimgi Rim tilshunosligida Donata va Prissianning grammatikaga oid yaratgan asarlari lotin tili grammatikasi qurilishining mukammal bayoni sifatida juda ko'p asrlar davomida o'rta asrlar davri uchun namuna bo'lib xizmat qildi. Rimliklar yunonlardan namuna olib, ularga taqlid qilib, lotin tili bo'yicha keng tadqiqot ishlari olib bordilar. Rimliklarning ona tili bo'yicha grammatikaga oid tadqiqotlari, asosan, yunon tilidan tarjima qilingan bo'lsa-da, ularning grammatikalariga ayrim yangiliklar, yangicha qarashlar kiritildi. Jumladan, Rim tilshunoslari yunon tilshunoslaridan farqli holda Rim grammatikasiga stilistika – uslubshunoslikni alohida soha tarzida kiritdilar. Shuningdek, ular so'z turkumlariga undovlarni ham kiritishdi. Ammo lotin tilida bo'lmagan, yunon tiliga xos bo'lgan artiklni chiqarib tashladilar. Lotin tilida ham 8 ta so'z turkumi farqlandi²¹. Yuliy Sezar lotin tiliga yunon tilida mavjud bo'lmagan ablativ(ajratish) kelishigini kiritdi va oltita kelishikni farqlab berdi.

Lotin tili o'rta asr Yevropasining yagona, asosiy o'rganiladigan, tadqiq qilinadigan tiliga aylanib qolgan edi. Bu davrga kelib lotin tili o'lik tilga aylangan bo'lsa-da, unda davlat hujjatlari tuzilar, ilmiy va badiiy asarlar yozilar, katolik cherkovlarida diniy marosimlar ado etilar edi. Bu til bilim olishning, mantiqiy fikrlashning ham manbayi deb hisoblanar edi. Lotin tili grammatikasining qoidalari va tushunchalari barcha tillar uchun umumiy hisoblanar, boshqa tillar grammatikasiga ko'chirilar edi. Natijada boshqa tillarning o'ziga xosliklari yo'qolar, undagi boshqacha qoida va tushunchalar hisobga olinmas edi. Albatta, bu bir yoqlama qarash edi va vaqti-soati yetguncha bu tartib hukm surdi. Jahon tilshunosligida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Xitoy tilshunosligi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Xitoy tilshunoslari tomonidan, ayniqsa, Xan

²¹ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T.: 2013, 21-, 25-betlar.

davrida(miloddan oldingi 206-yillardan milodiy 220-yillargacha) leksikologiya, leksikografiya, iyeroglifika, fonetika, grammatika va dialektologiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Ular so'z turkumlari masalasida ham boshqalardan biroz farqli fikrda bo'lishgan, ya'ni mustaqil so'zlarni yordamchi so'zlardan farqlaganlar. Mustaqil so'z turkumlariga ot, sifat va fe'llarni kiritishgan. Bundan chiqadigan xulosa shuki, ular ham son, olmosh va ravishni mustaqil so'z turkumi sifatida tan olmaganlar.

VII-VIII asrlarga kelib dunyoning juda katta qismida Arab xalifaligi o'rnatildi va unda arab tili asosiy ish yuritish vositasi hamda fan tili bo'lib maydonga chiqdi. Xalifalik hududiga juda ko'p xalqlar birlashtirilgan bo'lib, turli-tuman tillarda gaplashilar edi. Arab tilshunosligi ham xuddi hind tilshunosligida tarixida bo'lgani kabi, "Qur'on" tilining jonli arab tilidan farq qilishi, uni tushunib yetishga to'sqinlik qilishi, uni tushuntirish, izohlashga bo'lgan katta ehtiyoj natijasida paydo bo'ldi. Arab tilshunosligi faqat arab olimlarininggina yaratgan ilmiy ishlarini qamrab olmaydi. Bu tilshunoslikka butun musulmon olamidagi olimlar, ayniqsa qomusiy bilimlar sohibi bo'lgan vatandosh ajdodlarimiz ham munosib hissa qo'shishgan.

Arab tilshunoslari morfologiyada, Aristotel kabi, uchta so'z turkumini ajratadilar: *ismun (ot)*, *fe'lun (fe'l)* va *harfun (yuklama, yordamchi so'zlar va affikslar)*. Otni keng ma'noda olib, uning tarkibiga ot, sifat, son, olmoshlarni ham kiritadilar²².

Arab tilshunoslari faqat arab tili masalalari bilangina shug'ullanib qolishmasdan fors, mo'g'ul, turkiy tillarning o'ziga xos tomonlarini o'rganish bilan ham shug'ullanishgan. Chunonchi, tilshunos olim Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusiy yaratgan asararidan quyidagilar turkiy tillarni o'rganishga bag'ishlangandir. 1. Kitobul af'ol fillisoniy turkiya (Turk tilidan ish kitobi). 2.Kitob zahvul mulk finnahvit turkiya (Turk sintaksisi sohasidan yorqin kitob).

²² Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T.: 2013, 35-betlar.

3. Adduratul mudit'a fil lug'atit turkiya (Turk tili tarixi). 4. Kitob al idroki lisonil atrok (Turklar tilini tushunish kitobi).

Taxminan XIV asrda yaratilib, bizgacha yetib kelgan, muallifi noma'lum "At-tuhfatuz zakiyati fillug'atit turkiya" (Turkiy til haqida noyob tuhfa) asari ham turkiy tillarning ko'pgina xususiyatlari haqida noyob ma'lumotlar beradi. Ayniqsa, turkiy tilning grammatik kategoriyalaridan son, egalik, kelishiklar haqida ma'lumotlar batafsil qayd etilgan. Unda berilgan quyidagi besh kelishik haqidagi ma'lumot g'oyat muhimdir. **1. Tushum kelishigi. 2. Jo'nalish kelishigi(-g'a, -ga, -qa, -ka, -a). 3. O'rin-payt kelishigi(-da). 4. Chiqish kelishigi(-tan, -dan). 5. Birgalik kelishigi(bila).** O'zbek tilining kelishik kategoriyasi haqida mukammal ma'lumot beruvchi ushbu asarda hozirgi o'zbek adabiyotida mavjud bo'lgan bosh kelishik va qaratqich kelishigi haqida fikr bildirilmagan. Shu bilan bir qatorda, til tarixida **birlan** tarzida talqin etiluvchi **bila** ko'makchisini alohida kelishik sifatida tan olgan va ko'makcuilarning kelishiklar bilan sinonimik xususiyatini kelishikning o'zi bilan chalkashtirgan. Umuman olganda, bu asarni o'zbek tilidagi kelishiklar haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi manbalardan biri deyish mumkin.

G'.Abdurahmonov va A.Rustamovlarning "Qadimgi turkiy til" nomli qo'llanmasida kelishiklar va ularning morfologik ko'rsatkichlari quyidagicha berilgan:

1. Qaratqich kelishigi. Qo'shimchasi **-ning, -ning, -nung, -nvng** kabi variantlarda berilganki, ular o'zak yoki negizning qalin yoki ingichkaligiga qarab qo'shlgan.
2. Tushum kelishigi. Qoshimchasi **-g', -g, -n, -ni, -ni**.
3. Jo'nalish kelishigi. Qoshimchasi **-qaru, -g'aru, -karu, -garu, -qa, -ka -a**.
4. O'rin-chiqish kelishigi. Dastlab bu ikki kelishik farqlanmagan. Hatto jo'nalish kelishigining **-a** shakli o'rin kelishigi o'rnida qo'llangan. Bu hol ba'zi hozirgi o'zbek shevalarida ham uchrab turadi. Qoshimchasi **-da, -da, -ta, -ta**.

5. Chiqish kelishigi. Qadimgi turkiy tilning oxirgi davraliga kelib alohida kelishik tarzida shakllangan va qo‘shimchasi mustaqil tarzda uchray boshlagan. Qo‘shimchasi *-дын, -din, -тын, -tin, -дән, -dan, -tan, -тән*.

6. Vosita kelishigi. Qo‘shimchasi *-n* bo‘lib, so‘zga qo‘shilganda bir unli orttirilgan. Hozirgi tilimizda *bilan* ma’nosini anglatgan²³.

N.Rahmonov va Q.Sodiqovlar ham “O‘zbek tili tarixi” darsligida qadimgi turkiy tilda yettita kelishik bo‘lganligini qayd etadilar²⁴.

O‘rta Osiyodan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Mirzo Mehdixon va boshqa mashhur qomusiy olimlar tilshunoslik fani taraqqiyotiga ham munosib hissa qo‘shganlar. Abu Nasr Forobiy morfologiya haqida so‘z yuritarkan, arab tilshunoslari qarashlariga tayangan holda so‘zlarni *ot, fe’l va harflar(yordamchilar)*ga ajratadi. U otlarni atoqli va turdosh turlarga bo‘lsa, ulardagi grammatik songa e’tibor qaratadi, fe’llarga zamon xususiyatlari xosligini ta’kidlaydi. Sintaksis haqida ham fikr yuritib, so‘z birikmasi, nutqning qismlarga bo‘linishi, so‘zlarning birikish qonuniyatlari, hukm bildirishi, ularning birikish turlarini ko‘rsatib o‘tadi. Ayniqsa, uning orfografiya masalasida, ya’ni so‘zlarning yozilish qoidalari haqidagi dastlabki ma’lumotlari g‘oyat muhimdir.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”(“Turkiy so‘zlar devoni”) va “Javohirun-nahv fi lug‘otit turk” (“Turkiy tillar sintaksisining javohirlari”) nomli asarlar yaratganligi ma’lum. Ammo hanuzgacha uning ikkinchi kitobi – “Javohirun-nahv fi lug‘otit turk” asari topilganicha yo‘q. “Devonu lug‘otit turk”ning kirish qismida asarning tuzilishi, Shimoliy Xitoydan tortib, butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxorogacha tarqalgan katta hududdagi turkiy urug‘lar, qabilalar va ularning tillari, bu tillarning fonetik va grammatik xususiyatlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Uning lug‘at qismida 7,5 mingga yaqin turkiy so‘z arab tiliga tarjima qilinib, izohlanadi, ularning fonetik va

²³ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982, 30-32-бетлар.

²⁴ Раҳмонов Н., Содиқов Қ. О‘zbek tili tarixi. – Т.: O‘FMJN, 2009, 119-бет.

grammatik xususiyatlari bayon etiladi. Buyuk olim til va nutqning asosiy birligi bo'lgan so'z haqida fikr yuritar ekan, bunda u asosiy diqqat-e'tiborni so'z ma'nosiga, so'zning ko'p ma'noliligiga, so'z ma'nosining ko'chishiga, izohiga qaratadi. Asarda so'zlar arab tilshunosligi an'alariga tayanilib uch turkumga ajratiladi: ot, fe'l, yordamchi so'zlar²⁵.

Tilshunoslikka ulkan hissa qo'shgan qomusiy olimlardan biri Mahmud az-Zamaxshariydir. U musulmon sharqida "Ustod ul-arab va-l ajam"(arablar va g'ayri arablar uztozi), "Faxru Xvarazm"(Xorazm faxri) kabi sharafli nomlar bilan mashhur bo'lgan olim tilshunoslik, lug'atshunoslik, jo'g'rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fiqh va qiroat ilmiga oid ellikdan ortiq nodir asarlar yaratgan. Arab tilining morfologiyasi va sintaksisiga bag'ishlab yozilgan "Al-mufassal" asari hozirgacha oliy o'quv yurtlarida keng o'rganiladigan tengsiz va nodir manba hisoblanadi. Unda so'z turkumlari uchga bo'lingan. Bular: ot, fe'l va yuklamalar. Asar fonetika bo'limi bilan yakunlangan. U ham an'anaga rioya qilgan bo'lib, ravish so'z turkumiga alohida o'rin ajratmagan. Uning yana bir asari – "Muqaddimat ul-adab"da ham so'z turkumlari haqida bahs yuritilgan bo'lib, so'zlar ism(ot), fe'l, bog'lovchilarga bo'lib o'rganilgan.

Buyuk shoir, mutafakkir olim Alisher Navoiy ham o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida tillarning kelib chiqishi, til va tafakkur orasidagi munosabat, so'z ma'nosi, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, so'z yasalishi, morfologok kategoriyalar, fonetikaga oid qarashlar bayon etilgan, ko'plab misollar bilan tahlil qilingan, ilmiy jihatdan isbotlangan.

XVIII asrda ijod qilgan Mirzo Mehdixon o'zining "Sangloh" nomli katta hajmdagi lug'ati va unga ilova qilgan "Maboni ul-lug'at, ya'ni, sarfi va nahvi lug'ati chig'atoy"(qisqacha "Maboni ul-lug'at" nomi bilan mashhur) nomli asari bilan eski o'zbek tilining grammatikasiga oid nodir manba yozib qoldirgan. Uning bu ilova asari miqaddima va grammatika qismlaridan iborat. Bu asari eski o'zbek tili morfologiyasiga oid – fe'l, uning nisbatlari, zamonlari, xoslangan shakllari,

²⁵ М.Кошғарий.Дерону луғотит турк. I том. Т., 1960

yasalishi, tuslanishi, ko‘makchi fe’llar, ot, uning beshta kelishik shakli, son, uning turlari, olmoshlar, uning turlari, fonetik hodisalar tahliliga bag‘ishlangan. Muallif o‘zbek tilining morfologiyasi haqida fikr yuritar ekan, kelishiklar haqida ham qimmatli mulohazalarni qayd etadi. U o‘zbek tilidagi beshta kelishikni alohida ta’kidlaydi. **1. Qaratqich kelishigi(-ning).** **2. Tushum kelishigi(-ni, -n).** **3. Jo‘nalish kelishigi (-ka, -ga, -g‘a).** **4. Chiqish kelishigi(-dan).** **5. O‘rin-payt kelishigi (-da).** Muallif qo‘shimchalarining mavjudligiga qarab beshta kelishikni farqlaydi va ularning morfologik xususiyatlari haqida fikr yuritadi.

“Maboni ul-lug‘at”ni muallifning o‘zi ta’kidalanidek, haqli ravishda o‘zbek tilining birinchi ilmiy grammatikasi deyish mumkin. Biroq unda ham o‘zbek tilidagi sifat va ravish so‘z turkumlari haqida fikr-mulohazalar bildirilmagan.

XVIII asrda rus olimi M.V.Lomonosov o‘zining “Rossiya grammatikasi” asari bilan rus tilining dastlabki ilmiy grammatikasini yaratdi. Bu asar faqat normativ grammatika bo‘lib qolmasdan, tasviriy-me‘yoriy-uslubiy grammatika ham hisoblanadi, rus tili haqida umumiy, yaxlit ma’lumot beruvchi grammatika sifatida ham mashhurdir. Olim bu asarida rus tilidagi so‘z turkumlarini sakkizta deb belgilaydi. Bular: *ot, olmosh, fe’l, sifatdosh, ravish, predlog, bog‘lovchi, undov.* Yunonlar ham so‘z turkumlarini xuddi shunday sakkiz guruhga bo‘lib qaragan edilar: *ot, fe’l, sifatdosh, artikl yoki ko‘rsatkich, olmosh, old ko‘makchi, ravish va bog‘lovchi.* Faqatgina M.V.Lomonosovning “Rossiya grammatikasi” asaridan so‘ng so‘z turkumlari masalasi ilmiy jihatdan yoritila boshladi va ularga aniqliklar kiritildi²⁶. Bu asar A.Vostokovning “Rus grammatikasi” asari yaratilguncha qariyb 80 yil atrofida rus tilining asosiy grammatikasi sifatida qo‘llanib kelindi. Undan keyin tilshunoslik masalalari bilan shug‘ullangan rus olimlari dunyoning ko‘pgina tillari, ularning fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi bo‘yicha ko‘pgina ilmiy asarlar yaratishdi. Shu jumladan, turkiy tillar, shuningdek o‘zbek tili grammatikasiga doir kuzatishlar olib bordilar. Eng qadimgi manbalar va keyinchalik yaratilgan

²⁶ Усмонов С. Умумий тилшунослик. Т. : – Ўқитувчи, 1972, 26-40-б.

grammatikaga doir asarlarga tayanilgan holda XX asrga kelib o‘zbek tili grammatikasi ham yaratildi.

III.1.O‘zbek tilida kelishik kategoriyasining o‘rganilishi.

O‘zbek tilining morfologiyasi va sintaksisi birinchi marta alohida fan sifatida Abdurauf Fitrat tomonidan o‘rganildi. Uning “Sarf”, “Nahv” deb nomlangan o‘zbek tili grammatikasiga doir qo‘llanmalari 1925-1930-yillar orasida olti marta chop etilgan. 1932-yili M.Shamsiyev va Sherbekning “O‘zbek tili grammatikasi”, 1933-1934-yillarda esa H.Qayumiy va S.Dolimovlarning “Sarf”, “Nahv” kitoblari bosilib chiqdi. 1938-yili O.Usmon va B.Azizovlarning “Morfologiya”, “Sintaksis” nomli kitoblari bosilib chiqdi. O‘zbek tilining kelishiklari yuzasidan dastlabki tadqiqot A.G‘ulomov tomonidan amalga oshirilib, “O‘zbek tilida kelishiklar” nomi osatida 1941-yili nashr etilgan.

1957-yilga kelib o‘ttizinchi-qirquinchi yillarda yaratilgan grammatikalarga tayanilgan holda birinchi marta batafsil bayon etilgan o‘zbek tilining ilmiy grammatikasi – “Hozirgi zamon o‘zbek tili” kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitob o‘zbek tili grammatikasi bilan bir qatorda o‘zbek tili qurilishining boshqa qismlarini ham qamrab olgan edi.

Kitobda ot so‘z turkumi va kelishik kategoriyasi mavzusini yoritishga 34 sahifa ajratilgan. Otlarning ma‘nosi(atoqli va turdosh, yakka va jamlovchi) va grammatik xususiyatlari(son, egalik va kelishik) alohida mavzu etib berilgan. Otlarda kelishik kategoriyasi qismi A.G‘ulomovning “O‘zbek tilida kelishiklar” mavzusidagi tadqiqoti asosida yoritilgan. Kitobda o‘zbek tilida oltita kelishik mavjudligi va ularning morfologik va sintaktik xususiyatlari ochib berilgan²⁷.

1960-yilga kelib A.N.Kononovning o‘zbek tilshunosligida keyingi o‘ttiz yildan ortiqroq vaqt mobaynida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarning mazmun-mundarijasini umumlashtiruvchi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikasi”ning

²⁷ Hozirgi zamon ўzbek tili. Лексикология. Фонетика. Графика ва орфография. Морфология. – Тошкент: Фан, 1957, 315-326-бетлар.

nashr etilishi ham bu borada kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlariga turtki bo'ldi. A.N.Kononovning bu kitobi o'zbek til grammatikasi bo'yicha yaratilgan ikkinchi kitob bo'lib, uning birinchi kitobi 1948-yili "Грамматика узбекского языка" nomi bilan Toshkentda rus tilida nashr etilgan edi²⁸.

1962-yili M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlarning pedagogika institutlarining boshlang'ich maktab o'qituvchilari tayyorlaydigan fakultetlari talabarlari uchun yozilgan "O'zbek tili" darsligi nashr etildi²⁹.

Darslikning morfologiya qismi tilshunos olim S.Usmonov tomonidan yozilgan. Uning mundarijasi ham sodda bo'lib, ot, otlarning ma'no turlari, son kategoriyasi, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, otlarning yasalishi, otlarda modal forma yasalishi kabi mavzularni qamrab olgan. Darslik sodda va tushunarli uslubda yozilganligi tufayli hozirgacha bir necha marta nashr etilib, talabalar qo'lidan tushmay kelyapti.

1966-yili taniqli tilshunos olim G'.Abdurahmonovning umumiy tahriri ostida "O'zbek adabiy tili" (Fonetika. Leksikologiya. Morfologiya) kitobining 1-jildi bosmadan chiqdi. Kitobning "So'zboshi" qismida foydalanilgan manbalar batafsil bayon etilgan. So'zboshiga tayanib aytish mumkinki, mavzuning yoritilishida 1957-yilda nashr etilgan "Hozirgi zamon o'zbek tili" hamda U.Tursunov va J.Muxtorovlarning "O'zbek tili morfologiyasi" (Турсунов У., Мухторов Ж. Ўзбек тили морфологияси, Самарқанд, 1962) kitoblari asos bo'lgan. Kitobning 201-230-sahifalari "Ot" so'z turkumiga ajratilgan. Uning mundarijasi ham undan oldin nashr etilgan kitoblardan jiddiy farq qilmaydi.

To'plangan boy tajriba va materiallar asosida 1975-yilga kelib "O'zbek tili grammatikasi" (I tom, Morfologiya, II tom, Sintaksis) ning nashr etilishi bilan o'zbek tilining bir qadar mukammal ilmiy grammatikasi maydonga keldi. Unda ot so'z turkumi, uning morfologik xususiyatlari batafsil yoritib berilgan.

28 Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. Ташкент, 1948.

29 Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962.

Sh.Shoabdurahmonov boshchiligidagi mualliflar tomonidan 1980-yilda nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida berilgan ot so‘z turkumi bilan bog‘liq material I.Rasulov va A.Hojiyevlar tomonidan tayyorlangan. Ot so‘z turkumi kitobning 213-251-sahifalarida ancha keng yoritilgan. Unda negadir kelishiklar tartibi o‘zgartirib berilgan. **1. Bosh kelishik. 2. Qaratqich kelishigi. 3. Tushum kelishigi. 4. Chiqish kelishigi. 5. Jo‘nalish kelishigi. 6. O‘rin-payt kelishigi.**

Shunday qilib, tilshunoslik fani tarixida so‘z turykumlari, ot so‘z turkumi va uning kelishik kategoriyasi haqidagi qarashlar miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Ot so‘z turkumi sifatida barcha tillarga xos bo‘lsa, uning grammatik kategoriyalari har bir tilning o‘z ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan farq qiladi. Chunonchi, Hind-Yevropa tillar oilasiga mansub rus tilida oltita kelishik bo‘lgani holda shu oilaning eron tillari guruhiga mansub tojik tilida birorta ham kelishik yo‘q. Bu tilda kelishiklarning vazifasini old va ort ko‘makchilar bajaradi.

Turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tilining taraqqiy etishi bilan kelishik kategoriyasi ham rivojlanib bordi. Qadimgi davrda 4 ta kelishik farqlangan bo‘lsa, davrlar o‘tishi bilan ular soni yettitagacha yetgan. Bugunga kelib (vosita-qurol kelishigining vazifasi boshqa vositalar zimmasiga o‘tishi bilan) ularning soni oltitani tashkil etadi.

O‘zbek tilida kelishiklar ustida ko‘plab nomzodlik ishlari qilingan va maqolalar yozilga. Masalan: Razzoq Rasulov “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida otlarning kelishiklar bilan turlanishi” (1953, Borovkov rahbarligida), Obidjon Orifov “O‘zbek tilida chiqish kelishigi” (1945, A.G‘ulomov rahbarligida), H.Ne‘matovning “Chegara kelishigi” kabi maqola va nomzodlik ishlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Sayfullayeva R.R va boshqalar muallifligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” nomli darsligida ham kelishik kategoriyasi atroflicha yoritilgan: **Kelishik kategoriyasi.** Kelishik kategoriyasi (qisq. KK) morfologik kategoriya sirasida

ustuvor sintaktik tabiati bilan ajralib turadi. U EK bilan birgalikda sintaktik shakllarning soʻz birikmasiga xos guruhini tashkil etib, gapga xos kesimlik kategoriyasidan farqlanadi. KKning UGMsi – «sintaktik qurilmada oldingi soʻzni keyingi soʻzga bogʻlash». Bu bilan u EK ga qarama-qarshi tursa, feʼlning oʻzgalovchi kategoriyasi, bogʻlovchilar va koʻmakchilarga yaqin turadi. Ammo ulardan farqli jihatga ega. Koʻmakchidan morfologik koʻrsatkich (qoʻshimcha) ekanligi bilan farqlanadi. Koʻmakchilar grammatik maʼno ifodalash, soʻzlarni bir-biriga bogʻlash vazifasini bajarsa-da, leksik birlik hisoblanadi. Oʻzgalovchi kategoriya shakllaridan barcha mustaqil soʻzni sintaktik aloqaga kiritish, soʻzning lugʻaviy maʼnosiga taʼsir etmasligi bilan ajraladi. Holbuki, oʻzgalovchi kategoriyasi faqat feʼlga xos va feʼllarning lugʻaviy maʼnosiga taʼsir etishi bilan lugʻaviy-sintaktik mohiyatga ega. Shuning uchun ular «feʼl kelishiklari» deb ham yuritiladi. Bogʻlovchilardan esa tobe aloqa uchun xizmat qilib, soʻz birikmalariga xosligi hamda grammatik koʻrsatkich (qoʻshimcha) ekanligi bilan farqlanadi.

KK olti shaklli sistema boʻlib, ularning har biri oʻziga xos maʼnoviy va sintaktik xususiyatlar yaxlitligidan iborat. KK shakllari sistemasi quyidagi jadvalda aks etgan :

№	Kelishik	Qoʻshimchasi	Misollar
1	Bosh kelishik	<i>-0</i>	<i>kitob, yaxshi, oʻn, men, borish</i>
2	Qaratqich kelishigi	<i>-ning</i>	<i>kitobning, yaxshining, oʻnning, mening, borishning</i>
3	Tushum kelishigi	<i>-ni</i>	<i>kitobni, yaxshini, oʻnni, meni, borishni</i>
4	Joʻnalish kelishigi	<i>-ga</i>	<i>kitobga, yaxshiga, oʻnga, menga, borishga</i>
5	Oʻrin-payt kelishigi	<i>-da</i>	<i>kitobda, yaxshida, oʻnda, menda, borishda</i>

6	Chiqish kelishigi	-dan	kitobdan, yaxshidan, o'ndan, mendan, borishdan
---	-------------------	------	------------------------------------------------

Bosh kelishik. Bosh kelishik (qisq. BK) 0 shaklli bo'lib, uning mohiyati boshqa kelishiklarga qarama-qarshi qo'yilish asosida belgilanadi. BK dagi so'zshakl gap tarkibida tobe mavqedagi istagan gap bo'lagi, so'z yoki gap kengaytiruvchisi bo'lib kela oladi. Misollar:

Ega: *Derazamning oldida bir tup o'rik oppoq bo'lib gulladi.* (H.Olim.)

Aniqllovchi: *Bilim – baxt kaliti.* (Maq.)

To'ldiruvchi: *Ko'rpangga qarab oyoq uzat.* (Maq.)

Hol: *Ship etdi, Shibirg'on ketdi.* (Topish.)

Darslik va qo'llanmalarda BK kesim vazifasidagi so'zni ham shakllantiradi deyiladi: *Otam – o'qituvchi. Dil qulfi – til* kabi. Biroq bunda *o'qituvchi, til* so'zshakllari kesim vazifasida bo'lib, boshqa bo'laklarga mutlaq hokim. KKning sintaktik mohiyati esa «sintaktik qurilmada oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash». Bu mohiyat nuqtayi nazaridan kelishiklarga munosabatda bo'ladigan bo'lsak, kesimda bosh kelishikni qidirish – mantiqsiz. Chunki:

- a) kesimlik kategoriyasi tarkibi murakkab bo'lsa-da, unda kelishik shakli mavjud emas;
- b) KK umumturkumiy kategoriya ekan, unda kesim vazifasidagi barcha mustaqil so'zlarda kelishikni qidirishga to'g'ri kelgan bo'lar edi;
- d) KK sintaktik mohiyati «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash» ekan, kesim eng oxirgi so'z bo'lib, undan keyin bog'lanadigan birlik yo'q;
- e) ayrim tadqiqotlarda bunday paytda kelishik ma'nosi va vazifasi o'ta darajada kuchsizlashadi, deyiladi. Aslida bunda kuchsizlashish shu darajadagi, kelishik mohiyati mutlaqo voqelanmaydi – «ko'rinmaydi». Bu esa ushbu pozitsiyada kelishikni qidirmaslikni taqozo qiladi.

Tilshunoslar turkiy tillarda «bosh kelishikdagi so'z gapning xohlagan bo'lagi bo'lib kela olishi»ni ta'kidlashadi. BKning bu xususiyati boshqa kelishiklarning o'rnini almashtira olishi bilan belgilanadi. Ammo bu imkoniyat

chegaralangan. KK sistemasi ikki mikrosistemadan iborat: BK, qaratqich kelishigi (qisq. QK), tushum kelishigi (qisq. TK) va joʻnalish kelishigi (qisq. JK), oʻrin-payt kelishigi (qisq. OʻPK), chiqish kelishigi (qisq. ChK). BK birinchi mikrosistemaga mansub boʻlganligi uchun uning QK va TKni almashtirishi bemalol. JK, OʻPK va ChKga nisbatan bu imkoniyat nihoyatda chegaralangan. Masalan, *ikki kundan keyin – ikki kun keyin, qishloqqa ketdi – qishloq ketdi, oqshomda ketdi – oqshom ketdi.*

Qaratqich kelishigi. QK uch xil qoʻllanadi: *kitobning varagʻi, mening uyim, qoshin qarosi.* QK koʻrsatkichini olgan soʻz – qaratqich, u bogʻlangan soʻz – qaralmish. Qaratqich-qaralmish munosabati ancha barqaror boʻlib, bu QK koʻrsatkichining soʻz birikmasidagi oʻrni ancha barqarorligi bilan belgilanadi.

QK *shuning uchun, shuning singari* kabi birikuvlarda soʻz birikmasi hosil qilmaydi, balki soʻzning ajralmas qismiga aylanadi.

QKni olgan soʻz EKni olgan soʻz bilan birga qoʻllanadi. Bunday qurilishli soʻz birikmalari – QKdagi ism + EKdagi ism soʻz birikmasi umumiy qolipining voqelanishi.

QKning keltirilgan uch xil koʻrinishi nutq koʻrinishi, bogʻlanuvchi soʻzlarning lugʻaviy maʼnosiga bogʻliq ravishda yuzaga chiqadi.

Tushum kelishigi. TK ning morfologik koʻrsatkichi – *-ni*. Varianti – (*-n, -i*). TKdagi soʻz faqat feʼl bilan bogʻlanadi. Feʼllar TK dagi soʻzga munosabatiga koʻra, ikkiga ajraladi: oʻtimli feʼl va oʻtimsiz feʼl. TK ham koʻp holda BK bilan oʻrin almashadi: *kitobni oʻqidi – kitob oʻqidi, olmani yedi – olma yedi.* TK bilan shakllangan soʻz gap tarkibida soʻz kengaytiruvchisi – toʻldiruvchi vazifasini bajaradi: *Novdalarni bezab gʻunchalar, tongda aytdi hayot otini.* (H.Olim.)

Kelishiklarning belgili/belgisiz qoʻllanilishi masalasi munozarali. KKdagi soʻz uyushganda oldingi soʻzshakllardagi kelishiknigina belgisiz deyish maʼqul. Masalan: *Halim, Karim va Salimni koʻrdim* (belgisiz TK). *Opalarim va akalarimning dardlari bir dunyo* (belgisiz QK). *Na sada daraxtlari osti, na*

machitlar, na doim bazm qiziydigan gavjumda biror sharpa eshitasiz (belgisiz O'PK). (J.Abd.)

Jo'nalish kelishigi. JK ko'rsatkichi – *-ga*. JK semantikasiga yo'nalganlik, xoslik, tenglashtirish kabi ma'no turi xos. Bu ma'nolar birikuvchi so'zlarning xususiyatidan kelib chiqib o'zgarib ketaveradi: *ukamga olmoq, maktabga bormoq*. Birinchi birikmada «atalganlik» ma'nosi (*uka*) va (*ol*), ikkinchi birikmada «yo'nalganlik» ma'nosi (*maktab*) va (*bormoq*) so'zlarining lug'aviy va grammatik ma'nosiga bog'liq. JK UGMdagi kategorial ma'no esa «oldingi so'zni keyingi so'zga hol va to'ldiruvchi vazifasida bog'lash».

O'rin-payt kelishigi. O'PK ko'rsatkichi – *-da*. O'PK KK UGMsini «oldingi so'zni keyingi so'zga hol va to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi. O'PK va JK «yo'nalganlik» va «o'rinlashganlik» yondosh ma'nosi bilan farqlanadi.

O'PKning BK bilan o'rin almashishiga misol: *Sitora 1998-yil (da) tug'ildi*. Bunday almashish kam uchraydi. O'PK qo'llanishida so'zda makon, zamon, obyekt, vosita kabi ma'nolar yuzaga chiqadi: 1. *Munira kompyuterda yozdi* (vosita). 2. *Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda* (payt). (H.Olim.) 3. *Hammasi muqaddas kitoblarda aytilgan* (makon).

Chiqish kelishigi. ChK yagona ko'rsatkichga ega: *-dan*. Bu qo'shimcha ko'rsatish olmoshlariga qo'shilganda bir (*n*) tovushi orttiriladi: *u + dan = undan, shu + dan = shundan*. Aytilganidek, BK bilan ChKning o'rin almashishi nihoyatda cheklangan: *nondan yeng – non yeng, choydan iching – choy iching* kabi. ChKdagi so'z gap tarkibida hol, to'ldiruvchi, ega, kesim vazifasida keladi. Ega va kesim vazifasida kelganda ChK mohiyati voqelanmagandek tuyuladi. Misollar: *Munirada shu kitoblardan bor. Xijolati vazifani bajarmaganidan*. E'tibor qilinsa, bunda lisoniy qisqaruv mavjud: *Munirada shu kitoblardan (bir nechtasi) bor. Xijolati vazifani bajarmaganidan(dir)*. Birinchi gapda aslida *bir nechtasi* so'zshakli ega, ikkinchi gapda *-dir (turur)* kesim bo'lgan.

ChK TK bilan ham o‘rin almashishi mumkin. Bunda semantikada farq seziladi: *nondan yeng – nonni yeng, choydan iching – choyni iching*. ChKning QK bilan o‘rin almashishida ham shunday hol kuzatiladi: *o‘quvchilardan biri – o‘quvchilarning biri*.

Darslik va grammatikalarda har bir kelishikning yigirma-o‘ttiz ma’no turi keltiriladi. Ularning aksariyati KK UGMsiga xos bo‘lmagan, birikuvchi so‘zning lug‘aviy va grammatik ma’nosiga bog‘liq hodisalar. Shu boisdan har bir kelishik mohiyatini KK UGMdagi kategorial ma’no – «oldinggi so‘zni keyingi so‘zga bog‘lash» mohiyatini qay tarzda xususiylashtirishidan qidirmoq lozim.

Turkiy tillarda kelishiklarning semantik va vazifaviy jihatini bir-biridan alohida va har xil mikrosistemalarga keskin bo‘lib o‘rganib bo‘lmaydi, chunki bu tillar kelishiklarining ma’no va vazifasi dialektik birlikda yashaydi, kelishikning turli funksiyasi bir-biriga turli belgilari bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. Masalan, JK, O‘PK va ChK bir xil – hol va to‘ldiruvchi vazifasida kela oladi. Biroq ular bu vazifani turlicha bajaradi.³⁰

Shu bilan birga Mehriniso Abuzalovanning “Kelishiklarning substansial talqini haqida” nomli maqolasida ham “Kelishiklarning substansional mohiyati – umumiy grammatik ma’nosida substansial tadqiqning 4 tamoyili voqelanishini ko‘rib o‘tamiz.

Har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansublik tamoyili.

Oraliq uchinchi qonuni.

Lisoniy tizimning ierarxik (pog‘onaviylik) qurilishi.

Kelishik shakllarining har biri o‘ziga xos ma’no va vazifalari bilan birga o‘zining sinonimik qatoriga ega. Chunonchi, *o‘quvchilarning biri – o‘quvchilardan biri; uyga ketdi – uy tomon ketdi; ukamdan katta – ukamga qaraganda katta*.

³⁰ Sayfullayeva R.R va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (darslik). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.

Dialektik mantiq narsaga substansial yondashuv predmetning ayrim belgilarini abstract eslatishdan konkretlikka – mohiyatga qarab borishni talab qiladi. Shundagina o‘rganilayotgan narsa (predmet, hodisa...) haqida haqiqiy bilimga ega bo‘lish mumkin.”³¹

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tilida kelishik kategoriyasi keng va atroflicha o‘rganilgan hamda tadqiq qilingan. Bugungi kunda ham o‘rganilishni davom ettirmoqda. Umuman olganda, kelishiklarni substansial asoslarda o‘rganish dastlab praga maktabi lingvistlari(Roman Yakobson) tomonidan rivojlantirilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida shu qarashlarni boshlab bergan va davom ettirgan H.Ne‘matov va uning shogirdlaridir.

H.Ne‘matov talqinida kelishikning asliy mohiyati uni ikki xil – mohiyatan zid, lekin tabiatan bog‘liq bo‘lgan ma‘noviy va sintaktik vazifalarga ajratishda namoyon bo‘ladi. Bunda har bir kelishik shaklida ma‘noviy va sintaktik vazifalar farqlanadi. Jumladan, kelishik kategoriyasining umumiy sintaktik vazifasi “oldingi tobe so‘zni keying so‘zga bog‘lash” sifatida belgilanib, kelishiklarning umumiy semantik vazifasi “tobe/hokim so‘zning ma‘lum bir turkumga mansubligi, kelishik shaklidagi so‘zning ma‘no jihatdan aniq yoki noaniqligi, har xil makon/zamon, butun/bo‘lak munosabatlarining ifodalanishi” deb qaraladi.

III.2.Turk tilida kelishiklar tizimi.

O‘zbek tilida bo‘lgani kabi turk tilida ham kelishik kategoriyasi mavjud va ular shakl hamda son jihatidan farqlanadi. Quyidagi jadvalda turk tilidagi kelishiklar tizimini ko‘rishimiz mumkin:

HÂL EKLERİ

	HAL	EKLERI	SORULAR
--	------------	---------------	----------------

³¹ Абузалова М. Келишикларнинг субстанциал талқини ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти. – 2009. – №2. – Б. 81-82.

1	Yalın hal (Bosh kelishik)		Kim? Ne? Nere(si)? (Kim? Nima? Qayer?)
2	Yükleme hali (Tushum kelishigi)	-I, -i, -u, -ü -yi, -yi, -yu, -yü	Kimi? Neyi? Nereyi? (Kimni? Nimani? Qayerni?)
3	Yönelme hali (Jo‘nalish kelishigi)	-a, -e, -ya, -ye	Kime? Neye? Nereye? (Kimga? Nimaga? Qayerga?)
4	Bulunma hali (O‘rin-payt kelishigi)	-da, -de, -ta, -te	Kimde? Ne(y)de? Nerede? (Kimda? Nimada? Qayerda?)
5	Çekim hali (Chiqish kelishigi)	-dan, -den, -tan, -ten	Kimden? Ne(y)den? Nereden? (Kimdan? Nimadan? Qayerdan?)
6	Ilgi hali (Qaratqich kelishigi)	-in, -in, -un, -ün, -nin, -nin, -nun, -nün	Kimin? Neyin? Nerenin? (Kimning? Nimaning? Qayerning?)

Ko‘rib turganingizdek, yuqoridagi har bir kelishik qo‘shimchasi o‘zining bir nechta shakliga ega va qaysi paytda qaysi qo‘shimcha qo‘shilishini misollar orqali ko‘rib o‘tamiz.

Bosh kelishik o‘zbek tilida bo‘lgani kabi hech qanday qo‘shimchaga ega emas.

Masalan: *aslan, o‘g‘retmen, gök*

Ma‘lumki, o‘zbek tilida biror narsaning o‘rnini – paytini bildirish uchun ...da qo‘shimchasi qo‘shiladi. Masalan uyda, ko‘chada.

Turk tilida o‘rin-joy qo‘shimchasi sifatida: **’da (’de)** ishlatiladi. Masalan

Ev’de – uyda, **Fabrika’da** – fabrikada, **Şehir’de** – Shaharda

Qo‘shimchalar so‘z oxiridagi harflarga ko‘ra o‘zgaradi. Qachon –da, -de, -ta, -te ishlatilishini ko‘rib chiqamiz.

Soʻzdagi oxirgi yoki oxirigidan bitta oldingi harf qalin unli boʻlsa **'da** yoki **'ta** qoʻshimchasi qoʻshiladi:

a, ı, o, u => -da / -ta

Soʻzdagi oxirgi yoki oxirigidan bitta oldingiz harf yupqa unli boʻlsa **'de** yoki **'te** qoʻshimchasi qoʻshiladi:

e, i, ö, ü => -de / -te

Soʻzdagi faqat oxirgi harf qattiq undosh boʻlsa **-ta** yoki **-te** qoʻshiladi

f, s, t, k, ç, ş, h, p => -ta / -te

Misollar:

Agar oxirigidan bitta oldingi harf qalin unli (a, ı, o, u) boʻlsa, va oxirgi harfi qattiq undosh (f, s, t, k, ç, ş, h, p) boʻlsa, u holda **-ta** qoʻshiladi

Masalan: uçak**'ta**, taraf**'ta**

Agar oxirigidan bitta oldingi harf yupqa unli (e, i, ö, ü) boʻlsa, va oxirgi harfi qattiq undosh (f, s, t, k, ç, ş, h, p) boʻlsa, u holda **-te** qoʻshiladi

Masalan: Taşkent**'te**, Gaziantep**'te**

Boshqa hollarda yuqorida koʻrsatilgan soʻz oxiridagi harfga koʻra **-da** yoki **-de** qoʻshimchasi qoʻshiladi. Masalan: araba**'da**, yol**'da**, okul**'da**, izmir**'de**, ev**'de**, deniz**'de**

Ammo, Onun (*Uning*) yoki Onlarning (*Ularning*) olmoshlaridan keyin egalik (-im, -in, -i...) va oʻrin-payt ('da, 'de, 'te) qoʻshimchasi kelsa oʻrtada **-n-** harfi qoʻshiladi.

Masalan:

(Onun evi) Onun evinde (Onun ev-i**n**-de) – *Uning uyida*

(Onlarning odasi) Onlarning odasinda (Onlarning oda-sı**n**-da) - *Ularning xonasida*

Annem senin evin**in**'de ne yapıyor ? – *Onam sening uyingda nima qilyapti?*

Onlarning dükkan**ın**'da her şey var – *Ularning do'konida hamma narsa bor*

Qaratqich kelishigi:

Evin sahibi – *uyning egasi*. **Odanın kapısı** – *xonaning eshigi*, **Mehmetin arabası**
– *Mehmetning moshinasi*

Qo‘shimchalar

.....-**in** (-**in**, -**un**, -**nin**, -**nun**) **i** (-**i**, -**u**, **si**, **su**)

...Ahmet-**in** ...ev-**i**

...Araba-**nin** ...kapı-**si**

E‘tibor bersangiz qo‘shimchalar so‘zning oxirgi harfiga ko‘ra o‘zgarmoqda.
Qaysi holda qanday qo‘shimcha qo‘shilishini quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin:
Oxirgi harf quyidagi unlilar bilan tugasa:

(qaratqich kelishigi shakli)

↓

e, i => ...-nin, ...-si

a, ı => ...-nin, ...-si

o, u => ...-nun, ...-su

ö, ü => ...-nün, ...-sü

Masalan:

Kardeşimin annesi – *birodarimning onasi*

Mustafanın ailesi – *Mustafaning oilasi*

Odanın kapısı – *Xonaning eshigi*

Mahmütün komşusu – *Mahmutning qo‘shnisi*

Komşuun arabaları – *moshinalari*

Agar unlidan keyin undosh harf kelsa:

e, i (+undosh) => ...-in, ...-i

a, ı (+undosh) => ...-ın, ...-ı

o, u (+undosh) => ...-un, ...-u

ö, ü (+undosh) => ...-ün, ...-ü

Masalan:

evin sahibi - *uyning egasi*

Hasanın evi - *Hasanning uyi*

Mahmutun dersi – *Mahmutning darsi*

Otobüsün şoförü – Avtobusning haydovchisi

Odanın kapısı – xonaning eshigi

O‘zbek tilidagi “-dan” qo‘shimchasi turk tilida “-dan, -den” shaklida yoziladi. Masalan:

Okuldan – Maktabdan, **Evdan** - Uydan,

İstanbuldan geliyorum – istanbuldan kelyapman

Bunda qo‘shimcha so‘zning unli harfiga ko‘ra **-dan / -den** yoziladi.

a, ı, o, u => -dan	Okuldan, dükkandan, Buradan
e, i, ö, ü => -den	Evdan, Kardeşimden, Nereden
<i>So‘zdagi faqat oxirgi harf jarangli undosh bo‘lsa -d- harfi -t- harfiga aylanadi</i>	Taşkentten, uzaktan, bu taraftan
f, s, t, k, ç, ş, h, p => -t	

O‘zbek tilidagi “-ga” qo‘shimchasi turk tilida “-a, -ya, -e, -ye” shaklida yoziladi.

Masalan:

Okul’a – Maktabga, **Ev’e** - Uyga,

İstanbul’a gidiyorum – istanbulga boryapman

Qo‘shimchani o‘zgarishi:

Oxirgi harf undosh bo‘lib, undan avval quyidagi unli bo‘lsa:	<i>Masalan:</i>
a, ı, o, u (+undosh) => ’a	Okul’a git – Maktabga bor
e, i, ö, ü (+undosh) => ’e	Taşkent’e geldim – Toshkentga keldim
Unlidan keyin => ’ya / ’ye	Türkiye’ye gittim - Turkiyaga bordim

Ba‘zan “-a, -ya, -e, -ye” qo‘shimchalaridan oldin “-’-” (ayrish belgisi) ham qo‘yiladi:

Okula = Okul’a - Maktabga

Arabaya = araba’ya - Moshinaga

Har ikkisi ham bir xildir, Bularning farqi yo‘q.

Tushum kelishigi ham xuddi boshqa kelishiklar singari o‘zidan oldingi qo‘shimchalarga qarab qo‘shiladi:

....’ı (...’yi) Kitap al – Kitob ol, Kitap’ı al - Kitobni ol

ish’i yap – ishni bajar

Ayakkabi’yi ver - Oyoq-kiyimni ber

Quyidagi gapni tahlil qilamiz va undagi egalik va kelishik qo‘shimchalarini keltirib o‘tamiz.

Elif+in dayı+sı durum+mu öğren+ince açlık ve yorgunluk+tan sallan+an adam+ı araba ile sıcak ev+e götür+ü+ver+di.

Elif+in (Isim + **Ilgi hâli eki**) → qaratqich kelishigi

dayı+sı (Isim +iyelik eki) → egalik qo‘shimchasi

durum+mu (Isim + **yükleme hâli eki**) → tushum kelishigi

öğren+ince (Fiil + zarf-fiil eki)

açlık _____ (isim)

ve (Bağlama edati)

yorgunluk+tan (Isim + **Çekim hâli eki**) → chiqish kelishigi

sallan+an (fiil + sifat-fiil eki)

adam+ı (isim + yükleme hâli eki) → tushum kelishigi

araba (isim)

ile (edat)

sıcak (Sifat)

ev+e (isim+yönelme hâli eki)→ jo‘nalish kelishigi

götür+ü+ver+di (fiil+zarf fiil+yardimci fiil + ge‘miş zaman eki)

Quyidagi jadvalda har ikkala tildagi o‘xshash shakldagi qo‘shimchalarni keltirib o‘tamiz:

O‘zbek tilida	O‘xshash	Turk tilida
---------------	----------	-------------

	qo'shimchalar	
- -ning -ni	-ga -da -dan	-da, -dan -I, -i, -u, -ü, -yi, -yi, -yu, yü, -a, -e, -ya, -ye, -da, - de, -ta, -te, -dan, -den, - tan,-ten, -in, -in, -un, -ün, -nm, -nin, -nun, -nün

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalariga nisbatan turk tilidagi kelishik qo'shimchalari shaklan ko'pdir. Turk tilida kelishikning qaysi shaklining qo'shilishi esa o'sha so'zdagi unli va oxirgi harfiga bog'liq.

Xulosa.

Turkiy tillarning qiyosiy–tarixiy grammatikasini o‘rganishdan maqsad hozirgi turkiy tillarning fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va struktur-grammatik xususiyatlarini yaxlit holda tahlil qilish, turkiy tillar grammatikasida oltoy tillariga xos lingvistik jarayonlar ifodasini yoritish, turkiy tillarni tasniflashda fonetik, leksik, grammatik, geografik, etnik mezonlarning o‘rni izohlash; turkiy tillarning umumiy va xususiy taraqqiyot bosqichlari haqida muayyan tasavvur hosil qilish, tipologik o‘ziga xosliklarini umumlashtirish, farqli jihatlarini ajratishdan iborat.

Hozirgi kunda turkiy va o‘zbek tilining o‘zaro ta’siri ko‘zga tashlanmoqda. Ana shunday vaziyatda o‘zbek va turk tillarida egalik va kelishik kategoriyalari masalasi borasida to‘plangan bilim ko‘nikmalari turkologiya sohasini takomillashtirishda, umumturkiy global masalalarni hal qilishda, turkiy tillarda yaratilgan yozma yodgorliklar mazmunini o‘zlashtirishda, turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili taraqqiyot xususiyatlarini belgilashda, har ikki tilga xos o‘xshash va farqli jihatlarni kuzatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zotan, milliy til, qardosh tillar tarixi takomiliga jiddiy e’tibor qaratish barcha ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, mamlakat rivojining, millat ravnaqining asosiy mezonini belgilaydi.

Aslida turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish uzoq o‘tmishga borib taqaladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish sohasida bir qator izlanishlar yuzaga keldi. Rossiya Fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti turkiy tillar bo‘limi, uning Sankt–Peterburg va Sibir tarmoqlari tilshunoslari tomonidan turkiy tillar fonetikasi, leksikasi, grammatik qurilishini o‘rganish yuzasidan ilmiy ishlar yaratildi.

Umuman olganda, o‘zbek va turk tillaridagi til birliklari uzoq yillar davomida yonma–yon qo‘llanilib kelingan. Ammo, hozirgi kunda ular qisman farqlanadi. Albatta, bunga uzoq tarixiy taraqqiyot sababdir. Biz ana shu o‘xshash jihatlarni bu ikki til doirasida egalik va kelishik kategoriyasi misolida o‘ganib

chiqdik. O'xshashlik bilan bir qatorda farqli tomonlariga ham o'z e'tiborimizni qaratdik.

Bu ikki tilni qiyoslab o'rganishning eng muhim tomoni shundaki, ikki til tarjimasida bu ish amaliy ahamiyatga egali. Chunki, unli va undoshlarning o'ziga xos xususiyatlarini, talaffuzini o'rganmay turib tarjima ishlari bilan shug'ullanolmaymiz. Qalin unlining joyiga yupqa unli yoki qattiq undoshning o'rniga yumshoq undosh ishlatilsa, ma'no butunlay o'zgarib ketadi.

Har ikki tilning morfologiyasida ham o'zaro o'xshash va farqli tomonlar mavjud. Bu o'sha tilning adabiy til me'yorlari, imlo qoidalari va talaffuz qonuniyatlaridan kelib chiqqan holatda belgilanadi.

Egalik kategoriyasi, umuman olganda, barcha turkiy tillarga xos xususiyatdir. Lekin, ular har bir tilda tilning me'yorlaridan kelib chiqqan holda farqlanadi. O'zbek tiliga nisbatan turk tilida egalik qo'shimchalari shaklan ko'pdir va ular qanday talaffuz qilinsa shunday yoziladi. O'zbek tiliga nisbatan turk tilidagi egalik qo'shimchalarini o'rganish murakkabroq.

Kelishik kategoriyasi har ikki tilda ham o'rganiladi. Turk tilida kelishik qo'shimchalari shakl jihatidan va son jihatidan o'zbek tilidan farqlanadi. Kelishiklarni qo'shish jarayonida, albatta, talaffuzga, o'zidan oldin kelgan unli va undoshlarga e'tibor berish shart. Turk tilidagi kelishiklarni o'rganish o'zbek tiliga nisbatan murakkabroq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.- Б. 144.
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Таълим тўғрисида. Олий таълим. Меъриий-ҳуқуқий ва услубий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти шўба қорхонаси бош таҳририяти, 2004. 3-8-бетлар.

II. Ilmiy risola, darslik va o‘quv qo‘llanmalari:

3. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. – Toshkent: “Sharq” NMAK bosh tahririyati, 2004. 48- bet.
4. Абдуллаев Ф. А. Ўзбек адабий тилининг ўғуз лаҳжаси. Т., «Фан», 1978.
5. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий - тарихий грамматикаси. Т.: Фан, 2009.- 257 б.
6. Абдурахмонов Ғ. А., Шукуров Ш. Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1975.– 320 б
7. Абдурахмонов Ғ. А., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1982. – 168 б.
8. Abuzalova M., Yo‘ldoshova D. Tilshunoslikka kirish. T.: Universitet, 2005. – 136 b.
9. Bakalavrluk bitiruv malakaviy ishini bajarish, rasmiylashtirish va himoya qilish. Tuzuvchilar Jumaboyev A., Tuxvatullin F.X., Yakubov A.A. – Samarqand: SamDU, 2011.
10. Баскаков Н. А. Тюркские языки. М.: Изд.вост.лит. 1960.
11. Баскаков Н.А., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. – Т.:Ўқитувчи, 1979.-192 б.
12. Dadaboyev A.X, Xolmanova T.Z. Turkiy tillarning qiyosiy – tarixiy grammatikasi. – T.:Tafakkur bo‘stoni, 2015.-67-77 b.

13. Özkan Mustafa, Hatice Tören, Osman Esin. Üniversiteler için Türk dili. İstanbul,2001,Dil ve anlatım(9,10,11,12 sınıflar için)
14. Мирзаев М. Ўзбек адабий тилининг Бухоро группа шевалари.Т.: Фан, 1969. – 152 б.
15. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962, 1978.
16. Менглиев Б., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Қарши: Насаф, 2005.-184 б.
17. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. –Ташкент: Фан, 1989.-190 с.
18. Ne'matov N.,Ahmatov N., Ahmedov A. O'zbek tili tarixi., tayanch tushunchalar sharhi. Buxoro, 2008. – 48b.
19. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология.–Т.:Шарқ , 2001.-164б.
20. Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: “Академнашр”, 2012.
21. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Т.: O'qituvchi, 2006.
22. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Т.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.3.
23. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. Т.: O'qituvchi, 2013
24. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент.:Ўқитувчи, 1978 . - 232 б.
25. Sayfullayeva R.,Mengliyev B.,Boqiyeva G., Qurbonova M.,Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Т.: "Fan va texnologiya", 2009. - 414 б.
26. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. Тошкент. Ўқитувчи, 1981. – 192 б.
27. Sultonsaidova S. O'zbek tilidagi grammatik kategoriyalarning o'zaro munosabati .Т., 1994.

28. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1992. – 399 б.

29. Шоабдурахмонов Ш., М.Асқарова Ҳожиёв А., Расулов И., ДониёровХ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм, – Т.: Ўқитувчи, 1980.

30 . Усмонов С. Умумий тилшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 1972.-208 б.

31. Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.:Фан, 1975.-612 б.

32. Ўзбек тили грамматикаси. II том. –Т.:Фан, 1976.-560 б.

33. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Т.: Фан, 1984.

34. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Т.: Фан, 1957.

35. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-китоб, – Т.: Фан, 1966.

36 . Каримов Қ. Восита келишиги (“Қутадғу билиг” материаллари асосида). Ўзбек тили тарихи масалалари. Т.: Фан, 1977 .

III. Ilmiy jurnaldagi maqolalar:

37. Абузалова М. Келишикларнинг субстанциал талқини ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти. – 2009. - №2. – Б. 81-82.

38.Шаҳобиддинова Ш. Категория ва категориялаштиришга боғлиқ айрим муаммолар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. - №6. –Б. 12-15.

39. Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Ўзбек тили ва адабиёти. - 2007 . - № 6.

40. Маматов Ж. Ҳозирги ўзбек тилида урғу ва сингармонизм//Ўзбек тили ва адабиёти. – 2012. - №4. – Б. 65-69.

41. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. Грамматик категория муаммосига доир айрим мулоҳазалар//Ўзбек тили ва адабиёти. - 1998. - №6.

IV. Badiiy adabiyotlar:

42. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Тўрт томлик. Иккинчи жилд. Тошкент, 1996.

43. Айний Садриддин. Асарлар. 8 томлик. 2 том. Тошкент, Ўзадабийнашр, 1964. – 456 б.

44. Навоий Алишер. Топмадим. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 784 б.
45. Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Қ.Каримов нашри. Т.: Фан, 1972.
46. Ўзбек адабиёти бўстони. Уч булбул гулшани. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 648.
47. Фузулий. Ғазаллар, рубоийлар. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 103б.

V Internet ma'lumotlari:

48. www.samdu.uz/files/web/index.htm
49. [www.ziyouz.com.kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi). M.Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I tom.
50. <http://e-adabiyot.uz>
51. <http://cooltext.com>
52. <http://www.jigsawplanet.com/?rc=play&pid=2c9d2257f12c>
53. <http://arzuhuseynova300.blogspot.com/2012/12/blogpost.html>
54. [http:// it. Wikipedia: org/ wiki/ Divina Commedia](http://it.wikipedia.org/wiki/Divina_Commedia)
55. [http:// www. Greatdante.net/texts/commedia/ commedia.htm](http://www.Greatdante.net/texts/commedia/commedia.htm).
56. [http:// www. Media soft.it/dante/](http://www.Mediasoft.it/dante/)
57. [http: // www. Liberliber, it /biblioteca/a/Alighieri/ ladivina commedia/ htme/ index. Htm.](http://www.Liberliber.it/biblioteca/a/Alighieri/ladivina/commedia/index.htm)
58. <http://www.facebook.com/pages/Azerbaijan-dili-kitabi495809390436677?fref=nf>

MUNDARIJA

Ishning umumiy tavsifi.....	3
Kirish	6
I bob. O‘zbek va turk tillari morfologiyasi.....	13
I.1. Kategoriya haqida ma’lumot.....	18
I.2. O‘zbek va turk tillarida singarmonizm hodisasi.. ..	21
II bob. Egalik kategoriyasi.....	27
II.1. O‘zbek tilida egalik kategoriyasining o‘rganilishi.....	28
II.2. Turk tilida egalik tizimi.....	32
III bob. Kelishik kategoriyasi.....	39
III.1. O‘zbek tilida kelishik kategoriyasining o‘rganilishi.....	47
III.2. Turk tilida kelishiklar tizimi.....	56
Xulosa.....	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	64